

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Filologiya fakulteti

O‘zbek filologiyasi bo‘limi

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

DIYAROVA NIGINA SHERALIYEVNA

**HOLNING IFODALANISHI VA UNING O‘RTA MAKTAB, AKADEMIK
LITSEYLAR O‘QUVCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI**

**5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi**

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar

katta o‘qituvchi Boltayev M.

SAMARQAND - 2016

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti
O‘zbek filologiyasi bo‘limi
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası**

DIYAROVA NIGINA SHERALIYEVNA

**HOLNING IFODALANISHI VA UNING O‘RTA
MAKTAB, AKADEMIK LITSEYLAR
O‘QUVCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI**

**5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi**

Bitiruv malakaviy ishi

**Ilmiy rahbar katta o‘qituvchi Boltayev M.
SAMARQAND - 2016**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Filologiya fakulteti

O‘zbek filologiyasi bo‘limi

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini

DIYAROVA NIGINA SHERALIYEVNA

**HOLNING IFODALANISHI VA UNING O‘RTA MAKTAB, AKADEMIK
LITSEYLAR O‘QUVCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI**

**5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi**

Bitiruv malakaviy ishi

**Ilmiy rahbar
Rasmiy taqrizchi**

**katta o‘qit. Boltayev M.
Polvonova N.**

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2016-yil....-maydagi
majlisida muhokama qilingan va YDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (....-son
bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof.Salohiy D.I.

Bitiruv malakaviy ishi YDAKning 2016-yiliyundagi majlisida himoya
qilingan vaball bilan baholangan (.....-son bayonnoma).

YDAK raisi

prof. TURNIYOZOV N.Q.

A‘zolari:

SAMARQAND - 2016

Mundarija

Kirish.....3

I BOB

1.1. Tilshunoslikda gap bo‘lamlari haqidagi tushuncha va holning o‘rganilish tarixi.....8

1.2. O‘zbek tilshunosligida holning o‘rganilishi.....13

1.3. Holning oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan o‘rganilishi.....28

II BOB

2.1. Maktab darsliklarida holning berilishi.....42

2.2. Akademik litseylar darsliklarida holning berilishi.....49

Xulosa.....54

Adabiyotlar ro‘yxati.....57

Kirish

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Davlat ta’lim standartlari kabi me’yyoriy hujjatlarda ta’lim sifatiniyanada oshirish, o’quvchilar bilimi va ko’nikmalariga qo’yiladigan talablarning zamonamizga mos bo’lishi, fandagi biror bir tushuncha yuzasidan har xilliklarni bartaraf etish amalda qo’llanilayotgan har bir ilmiy ish, o’quv qo’llanma va darsliklarning mazmun-mohiyatini, asosini tashkil etmog’i lozimligi qat’iy belgilab qo’yilgan. Bugungi axborot oqimi tezlashgan globallashuv zamonida ijtimoiy faoliyatning boshqa sohalari kabi pedagogik faoliyat ham muttasil rivojlanib bormoqda. Dars sifati va samaradorligini oshirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash ko’nikmasini hosil qilish, undan dars jarayonida o’rinli foydalanish o’quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko’nikmasi va malakasini yuzaga keltirish omili hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, har bir darsni yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda tashkil etish, dars sifati va samaradorligini muttasil oshirish, ilmiy jihatdan asoslangan darsliklar, o’quv qo’llanmalari, uslubiy qo’llanmalar, yangi ilmiy ishlar yaratish talab etiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng o’tgan chorak asr mobaynida mamlakatimiz kelajagi va uning bunyodkorlari bo’lgan yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko’tariladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Istiqlol yillarida o’zbek tilining qo’llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o’ziga xos xususiyatlariga bag’ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o’quv qo’llanmalari, yangi-yangi lug’atlar ko’plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o’z hissasini qo’shmoqda”.¹ Mana shu nuqtayi nazardan qaralganda, o’zbek tilshunosligida sintaktik birliklarning tildagi vazifalarini aniqlash, ularning maktab va akademik litseylar o’quvchilar tomonidan qay darajada o’rganilib, o’zlashtirilayotganligi tadqiqi shu kunning muhim va dolzarb

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 86-б.

masalasi hisoblanadi. Shu vaqtgacha “Holning ifodalanishi va uning o‘rta maktab, akademik litseylar o‘quvchilari tomonida o‘rganilishi” mavzusi bitiruv malakaviy ishi sifatida tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz bu boradagi dastlabki urinishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda bo‘lg‘usi pedagog-kadrlar tahsil olayotgan oliy ta‘lim muassasalarida yangi asr o‘qituvchi-murabbiylarini tayyorlashda ularning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyatlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar ta‘lim bo‘yicha chuqur bilimga ega ekanliklari, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, ta‘limning interaktiv usullari va ilg‘or samarali metodlari hamda o‘quvchilarning ijodiy faolliklarini oshirishning samarali usullaridan xabardor bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo‘lishi lozim,”² - deb ta‘kidlaydilar.

Ona tilini o‘qitish ta‘limi diqqat-markazida til o‘rganuvchilarning o‘zaro hamda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladigan jonli va ta‘sirchan nutqiy muloqoti turadi. Mana shu ta‘sirchan va jonli muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uchun ona tili grammatikasining qonun-qoidalarini yaxshi bilishga ko‘maklashuvchi topshiriqlarni o‘zida mujassam etgan darslik va qo‘llanmalar, ular asosida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, o‘quvchilarning ona tilini o‘rganishiga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va yanada o‘rttirishga ham hissa qo‘shishini talab etadi. Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda o‘zbek tilining sintaktik qurilishi va qonun-qoidalarini til materiallari asosida o‘rgatish juda muhimdir. Mustaqil ozod mamlakatimizning taraqqiyoti va porloq kelajagi uchun zarur bo‘lgan ijodiy tafakkur sohibi-mustaqil fikrlay oladigan shaxsni

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 61-б.

tarbiyalab, voyaga yetkazish ta'lim tizimini, shu jumladan, ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda maktablar va akademik litseylar o'quvchilariga ona tili darslarida "Hol va uning ifodalanishi" mavzusini o'tishda foydalaniladigan nazariy va amaliy materiallarning to'g'ri tanlanishi, ularning dars jarayoniga qay darajada tatbiq etilayotganligini tahlil etishni ko'zda tutadi. Bu, o'z navbatida, tadqiqot mavzusining dolzarbligini ham belgilaydi.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizga umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun "Ona tili" hamda akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarini asos qilib olganmiz.³

Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa-aralashuv vazifasini, insonning fikrlash va u tufayli hosil qilingan nutq mahsulini og'zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o'z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan bu ijtimoiy vazifa o'quvchilarni fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shuning uchun ham ona tili ta'limi oldiga har tomonlama mukammal shakllangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Mana shu ezgu maqsaddan kelib chiqqan holda davlat ta'lim standartlari talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmunini o'quvchilarning fikirlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglash hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishiga o'rgatish tashkil etadi.

Gapning kim haqida, nima haqida ekanligi, bajaruvchining amalga oshirayotgan ishlari haqida xabar beruvchi bosh bo'laklarning vazifasini farqlamagan o'quvchi gapdagi bosh bo'laklarning vazifasini ham tushunib yetishi

³ Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijoiy uyi. 2010. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. – T.: Ilm Ziyo, 2010.

qiyin. Shuning uchun ham o'quvchilarga ta'limning quyi bosqichlaridayoq gapning bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklari haqida muayyan tushunchalar berib boriladi va yuqori bosqichlarda esa ular keng va chuqur o'rgatiladi. Shunga ko'ra o'quvchilar gapning mazmun-mohiyati, tuzilishi, bo'laklarning o'zaro mantiqiy bog'liqligini puxta egallashlari uchun ham gap bo'laklarini hech bir qiyinchiliklarsiz farqlay va ajrata olishlari shart. Gap bo'laklarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o'zaro qiyoslash orqali ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash malakasini ham egallaydilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflarida o'qitiladigan "Ona tili", akademik litseylarning 1-3-bosqichlarida o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanlari o'quvchilarga o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, grammatikasi bo'yich nutqning og'zaki va yozma shakllarida keng va to'g'ri foydalanishlari uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berishni; so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, imlo va tinish belgilarining asosiy qoidalarini o'zlashtirib olishini; ona tilining xazinasini bo'lmish turli lug'atlardan foydalana olishini; o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda, turli shakllarda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishni; muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish yo'llarini; kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yurutish ko'nikmalarini; yosh va malaka darajasiga mos bo'lgan badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi o'z fikr-mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish ko'nikmasini; tashqi dunyoni o'rganish va uni til birliklarida ifodalashda, jamiyat a'zolari orasida muloqat o'rnatishda ona tilining beqiyos ahamiyatini his etish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikmalar berishni asosiy vazifa qilib oladi.⁴

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan o'zbek filologiyasi, pedagogika fakultetlari talabalarining ushbu mavzu bo'yicha mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari

⁴O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Respublika ta'lim markazi. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. – T.: 2010, 2-41-betlar.

yoʻzishlarida, shuningdek, umumtaʼlim maktablari, akademik litseylar ona tili mashgʻulotlarida hol mavzusini oʻtishda, noanʼanaviy darslar tashkil etishda ilmiy-amaliy va metodik manba vazifasini oʻtashi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimiz oldiga qoʻyilgan asosiy maqsad oʻzbek tilida holning ifodalanilishi va uning gap qurilishidagi ahamiyatini oʻrganish, gap tarkibida ularning oʻrinli qoʻllanilishini tahlil etish va holning gapning boshqa boʻlaklar qurshovida tutgan oʻrnini sintaktik jihatdan tadqiq qilish, shuningdek, mavzuni oʻrganish jarayonida olib borilgan tadqiqot natijalarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumtaʼlim maktablarida ona tili darslari jarayoniga tatbiq etishdan iborat. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda yana quyidagi vazifalarni amalga oshirish koʻzda tutiladi:

- gap boʻlaklari, shu jumladan, hol mavzusining oʻrganilishi tarixiga nazar solish;
- holning oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishiga nazar tashlash;
- oʻzbek tili gap qurilishida hollarning qoʻllanilishi va ahamiyati;
- maktablar va ALlar darsliklarida bu mavzularning berilishini oʻrganish;
- ona tili darslarida hol mavzusini oʻqitishning yangi usul va yoʻllarini topish, ishlab chiqarilgan usul, vosita hamda oʻyin-topshiriqlarni amalda qoʻllash boʻyicha tavsiyalar berish.

Biz oʻz ishimizda umumtaʼlim maktablarining 8-sinf oʻquvchilari uchun “Ona tili”, akademik litseylar kasb-hunar kollejlarning uchinchi bosqich oʻquvchilari uchun “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsliklarida berilgan ikkinchi darajali boʻlaklardan holni oʻtishga doir nazariy va amaliy materiallarni, mashiiqlar topshiriqlar, savollar va boshqalarni imkoniyatimiz doirasida tahlil qilashga intildik.

I BOB

1.1. Tilshunoslikda gap bo‘laklari va holning o‘rganilishi.

Olimlarning ta’kidlashlaricha, tilning morfologiya qismi sintaksis qismiga nisbatan ancha mukammal o‘rganilgan. Tilshunoslik tarixiga doir adabiyotlarda qayd etilishicha, jahon tilshunosligining ilk namunalari qadimi Hindiston, Yunoniston, Rim va Xitoy mamlakatlarida paydo bo‘lgan. O‘rta va undan keyingi asrlarda tilshunoslikka doir ilmiy qarashlar Yevropa, Arabiston, va O‘rta Osiyoda taraqqiy qilgan.

Hindistonda bundan o‘n besh asr ilgari qadimgi hind - sanskrit tilida bitilgan vedalarni jonli hind tilida izohlash, sharhlash asnosida tilshunoslik paydo bo‘lgan va hind olimlari tilning fonetikasi, grammatikasini, aniqrog‘i morfologiyasini o‘rganishda katta yutuqlarga erishganlar. Ular so‘zlarni ot, fe‘l, old ko‘makchi, yuklama kabi turkumlarga ajratganlar. Ular birinchi bo‘lib so‘z turkumlarini gap bo‘laklaridan farqlaganlar, ya’ni old otlarni narsa-buyum, fe‘llarni esa harakatni ifodalovchi so‘zlar sifatida qaraganlar. Hind olimi Panini tuzgan “Ashtadxyan” nomli grammatika ikki ming yil davomida hindlarga xizmat qilgan va melodiylar XIII asrga kelib, Vopadeva tuzgan yangi grammatikaga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan. Tilshunos Yaski o‘zigacha yaratilgan tilshunoslikka doir tadqiqotlarni umumlashtirib, hind tilshunosligini umumjahon miqiyosiga ko‘taradi. Hind tilshunosligi yunon va arab tilshunosligining paydo bo‘lishi va yuksalishiga sabab bo‘ldi.

Qadimgi Yunoniston Yevropa tilshunosligi fanining markazi hisoblangan. Yunoniston tilshunosligi ikki davrga bo‘lib o‘rganiladi: 1. Falsafiy davr. 2. Grammatik davr. Tilshunoslikning falsafiy davri ikki yuz yil atrofida davom etgan bo‘lib, tilni falsafiy jihatdan o‘rganganlar. Bunday qarashlar Gerklit, Demokrit, Anasimen, Prodik, Praton, Aristotel va boshqalar yaratgan asarlarda o‘z aksini topgan. Tilshunoslikning grammatik yoki Iskandariya davri milodigacha bo‘lgan 334-31-yillarida taraqqiy etib, rivojlandi. Bu davrning eng mashhur olimlari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar hisoblanadi. Ular fonetika, etimologiya, sintaksis sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan

bo'lsalarda, morfologiya sohasida katta yutuqlarga erishganlar, so'zva gapning muhim xususiyatlarini aniqlab, izohlab beradilar.

Miloddan oldingi IV asr o'rtalaridan milodiy VI asr boshlarigacha bo'lgan davrda qadimgi Rim tilshunosligi taraqqiy etdai. Bunda Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Pissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda ko'p asrlar davomida o'rta asrlar davri uchun namuna bo'lib xizmat qilib keldi. Rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar ham uchrab turadi.⁵

Lotin tili o'rta asr Yevropasining yagona, asosiy o'rganiladigan, tadqiq qilinadigan tiliga aylanib qolgan edi. Bu davrga kelib lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsa-da, unda davlad hujjatlari tuzilar, ilmiy va badiiy asarlar yozilar, katolik cherkovlarida diniy marosimlar ado etilar edi. Bu til bilim olishning, mantiqiy fikirlashning ham manbayi deb hisoblanar edi. Lotin tili grammatikasining qoidalari va tushunchalari barch tillar uchun umumiy hisoblanar, boshqa tillar grammatikasiga ko'chirilar edi. Natijada boshqa tillarning o'ziga xosliklari yo'qolar, undagi boshqa tushuncha va qoidalar hisobga olinmas edi. Albatta, bu bir yoqlama qarash edi va vaqti-soati yetguncha bu tartib hukum surdi.

Jahon tilshunosligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Xitoy tilshunosligi ham juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, Xan davrida(miloddan oldingi 206-yillardan milodiy 220-yillargacha) leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan.

Dunyoning juda katta qismida VII-VIII asrlarga kelib Arab xalifaligi o'rnatildi va unda arab tili asosiy ish yuritish vositasi hamda fan tili bo'lib maydonga chiqdi. Xalifalik hududiga juga ko'p xalqlar birlashtirilgan bo'lib, turli-

⁵ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013, 21-,25-betlar.

tuman tillarda gaplashilar edi. Mana shu hol va “Qur’on” tilining jonli arab tilidan farq qilishi uni tushunib yetishga to’sqinlik qilishi, uni tushuntirish, izohlashga bo’lgan ehtiyoj natijasida arab tilshunosligi paydo bo’ldi va u hind hamda yunon tilshunoslarining ta’limotlariga tayandi.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning eng bo’sh bo’limi hisoblangan. Shunga qaramasdan, arablarda sintaksisning tekshirish obyekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so’zdan-ikki otdan yoki ot va fe’ldan iborat bo’lishini, bu so’zlar o’rtasidagi subyekt-predikat munosabatining o’rganilishini to’g’ri ta’kidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga ko’ra otli, fe’lli va holli turlarga bo’linishini qayd etadilar. Otli gaplarning ot so’zdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), Fe’lli gaplarning esa fe’l so’zdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar. Otli gapning egasi mbtado, kesim esa xabar deb nomlanadi. Gapning ikkinchi darajali bo’laklar sifatida 1) to’ldiruvchi, 2) hol va izohlovchilar ko’rsatiladi. So’zlar orasidagi sintaktik munosabatga xizmat qiluvchilar sifatida moslashuv, boshqaruv va bitishuv olinadi. Otli gaplarda ega kesim bilan moslashadi.⁶

Arab tilshunosligi faqat arab olimlarininggina ishlarini qamrab olmaydi. Bu tilshunoslikka butun musulmon olamidagi olimlar ham munosib hissa qo’shgan. O’rta Osiyodan yrtishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg’ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon va boshqa mashhur qomusiy olimlar tilshunoslik fani taraqqiyotiga ham munosib hissa qo’shganlar.

Abu Nasr Forobiy morfologiya haqida so’z yuritar ekan, arab tilshunoslari qarashlariga tayangan holda so’zlarni ot, fe’l va otlarga ajratadi. U otlarni atoqli va turdosh otlarga bo’lsa, ulardagi grammatik songa etibor qaratadi, fe’llarga zamon xususiyatlari xosligini ta’kidlaydi. Sintaksis haqida ham fikr yuritib, so’z birikmasi, nutqning qismlarga bo’linishi, so’zlarning birikish qonuniyatlari, hukm bildirishi, ularning birikish turlarini ko’rsatib o’tadi. Ayniqsa, uning orfografiya

⁶ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013, 34-55-betlar.

masalasida, ya'ni soʻzlarning yozish qoidalari haqidagi dastlabki ma'lumotlari gʻoyat muhimdir.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” (“urkiy soʻzlar devoni”) va “Javohirun-nahv fi lugʻatit turk” (“Turkiy tillar sintaksisining javohirlari”) nomli asarlari yaratganligi tarixdan ma'lum. Ammo hanuzgacha uning ikkinchi kitobi topilganicha yuq. “Devonu lugʻatit turk”ning kirish qismida asarning tuzilishi, Shimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Fargʻona, Buxorogacha tarqalgan katta huuddagi turkiy urugʻlar, qabilalar va ularning tillari, bu tillarning fonetik va grammatik xususiyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Uning lugʻat qismida 7,5 mingga yaqin turkiy soʻz arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik va grammatik xususiyatlar bayon etiladi. Buyuk olim til va nutqning asosiy birligi boʻlgan soʻz haqida fikr yuritar ekan, bunda u asosiy diqqat-e'tiborni soʻz ma'nosiga, soʻzning koʻp manoliligiga, soʻz ma'nosining koʻchishiga izohiga qaratadi. Tilshunoslikka ulkan hissa qoʻshgan qomusiy olimlardan biri Mahmud az-Zamaxgariydir. U musulmon sharqida “Ustod ul-arab va-l ajam” (arablar va gʻayri arablar ustoz), “Faxru Xvarazm”(Xorazim faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur boʻlgan olim tilshunoslik, lugʻatshunoslik, joʻgʻrofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid ellikdan ortiq nodir asarlar yaratgan. Arab tilining morfoligiyasi va sintaksisga bagʻishlab yozilgan “Al-mufassal” asari hozirgacha oliy oʻquv yurtlarida keng oʻrganiladigan tengsiz va nodir manba hosoblanadi.

Buyuk shoir, mutafakkir olim Alisher Navoiy ham oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, soʻz ma'nosi, soʻzlarning shakl va ma'no munosabatiga koʻra turlari, soʻz yasalishi, morfologik kategoriyalar, fonetikaga oid qarashlar bayon etilgan, koʻplab misollar bilan tahlil qilingan, ilmiy jihatdan isbotlagan.

XVIII asrda ijod qilgan Mirzo Mehdixon oʻzining “Sanglox” nomli katta hajimdagi lugʻati va unga ilova qilgan “Maboni ul-lugʻat, ya'ni, sarfi va navhi lugʻati chigʻatoy” nomli asari bilan eski oʻzbek tilining grammatikasiga oid nodir manba yozib qoldirgan. Uning bu ilova asari muqaddima va grammatika

qismlaridan iborat. Bu asar eski o‘zbek tili morfologiyasiga oid – **fe’l**, uning nisbatlari, zamonlari, xoslangan shakllari, yasalishi, tuslanishi, ko‘makchi fe’llar, **ot**, uning beshta kelishik shakli, **son**, uning turlari, **olmoshlar**, uning turlari, fonetik hodisalar tahliliga bag‘ishlangan. “Maboni ul-lug‘at”ni haqli ravishda o‘zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi deyish mumkin.

XVIII asrda rus olimi M.V.Lomonosov o‘zining “Rossiya grammatikasi” asari bilan rus tilining dastlabki ilmiy grammatikasini yaratadi. Bu asar faqat normativ grammatika bo‘lib qolmasdan, tasviriy- me‘yoriy-uslubiy grammatika ham hisoblanadi va rus tili haqida umumiy, yaxlit ma’lumot beruvchi grammatikadir. M.V.Lomonosovning “Rossiya grammatikasi” asaridan so‘ng so‘z turkumlari masalasi ilmiy jihardan yoritila boshladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, nuyq tovushlari, ularning unli va undosh turlari, bo‘g‘in, urg‘u, ularning ahamiyati, so‘zlar, ularning ma’no ifodalanishi, turkumlarga bo‘linishi, gap, gapning turlari, gap bo‘laklarining o‘rganilishi miloddan oldingidavrlardan boshlangan va XIX asrga kelib o‘zining takomiliga erishgan. Bunda qadimgi hind, xitoy, yunon, Rim, arab va O‘rta Osiyo hamda keyingi davr Yevropa tilshunoslarining xizmatlari katta bo‘lgan.

1.2. O‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari va holning o‘rganilishi.

Gap grammatik shakllangan, ohang tugalligiga ega bo‘lgan, nisbiy tugal fikr bildiradigan so‘zlar tuzilmasidan yoki ayrim bir so‘zdan tashkil topadi. Gap bo‘laklari tushunchasi birdan ortiq so‘zdan tashkil topgan gaplarga tadbiq qilinadi. Yolg‘iz bir so‘zdan iborat bo‘lgan gaplarda (bas, ha, yo‘q kabi so‘z-gaplarda) gapning bo‘laklari to‘g‘risida so‘zlash mumkin emas. Chunki gap bo‘laklari gap tarkibidagi so‘zlarning ma‘lum qonun-qoidalar asosida o‘zaro bog‘lanishidan hosil bo‘lgan sintaktik butunlikning qismlaridir.

Ma‘lumki, gapdagi so‘zlar bir-birlari bilan teng yoki tobe aloqaga kirishishi mumkin. Gapni bo‘laklarga ajratishda so‘zlarning tobe aloqaga kirishishi asosiy mezon sanaladi. Teng aloqa gapning bo‘laklarini belgilashda asosga olinmaydi. Masalan: 1. *Dasht! Harorat zarbidan hammayoq lip-lip etadi* (A.Qahhor, “Sarob” – 261 b.). 2. *Shamol va qor. Hech kim ko‘zini ocholmaydi.* 3. *Mehri kasalxonada uzoq yotib qoldi* (A.Qahhor, “Sarob” – 260 b.).

Bu misollarning birinchisida *Dasht* bir so‘zdan tashkil topgan. Bunda gap bo‘laklarini qidirishga asos yo‘q. Ikkinchi misoldagi *Shamol va qor* gapida so‘zlar o‘zaro tenglashish yo‘li bilan bog‘langan. Bunda ham gapning bo‘laklari yo‘q. Uchinchi misoldagi gapda so‘zlar bir-birlari bilan tobe aloqaga kirishgan. Bunda gapning bo‘laklari bor: Mehri-ega; kasalxonada-hol, uzoq-hol; yotib qoldi-kesim.

Demak, gapning bo‘laklari tobe aloqadagi turli xil so‘z bog‘lanishlari asosida gapda tug‘iladigan va gapning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etadigan sintaktik kategoriyadir.

Gap bo‘laklarining materiali so‘zlardir. So‘zlar gap tarkibida bir-birlari bilan sintaktik aloqaga kirishgandagina nutqda gapning u yoki bu bo‘lagi vazifasida kela oladi. Sintaktik aloqa gap bo‘laklarining muhim sintaktik xususiyatidir. Bu narsa (sintaktik aloqa) gapning bo‘laklari bilan undalma va kirish so‘zlar o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun imkon beradi. Undalma va kirish so‘zlar gap tarkibidagi so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Shunga ko‘ra, ular, odatda, gapning bo‘laklari hisoblanmaydi.

Amaliyotda ko'pgina gapning bo'laklari so'roqlar berish usuli bilan aniqlanadi. Bu usul ba'zi jihatlardan o'zini oqlay olmaydi. Masalan, *Yo'q, Anvar aka, ayam tushunmasdan o'shanaqa qilganlar* (A.Qahhor, "Anor" – 36-b) gapida *Anvar aka* so'zi ham, *ayam* so'zi ham bir xil so'roqqa – *kim?* so'rog'iga javob bo'ladi, lekin ularning birinchisi undalma, gap bo'lagi hisoblanmaydi, ikkinchisi ega gap bo'lagi. So'roqlar sintaktik aloqa asosida bog'langan so'zlarning biridan ikkinchisiga tomon qo'yilganda ular yordamida gapning bo'laklarini belgilash mumkin bo'ladi. Bunda undalma va kirish so'zlar bilan gap bo'laklarining turini belgilashda bu usuldan hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Masalan: *Sog'lig'im-boyligim* (maqol) misolida gapning bo'laklari mavjudligini so'roqlar yordamida aniqlash mumkin, biroq ularning qaysi biri gapning qanday bo'lagi ekanini so'roqlar yordamida aniqlab bo'lmaydi. Chunki bu gapdagi bo'laklarning har ikkovi ham bir xil so'roqqa – *nima?* so'rog'iga javob bo'lsa ham ularning biri - ega, ikkinchisi kesimdir.

Gapning bo'laklari maxsus grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lganda so'roqlar ularning turini aniqlash uchun yordam berishi mumkin. Masalan, gapdagi biror so'z kimni?, nimani? so'roqlaridan biriga javob bo'lsa - to'ldiruvchi, nima qildi?, nima qilasan? so'roqlariga javob bo'lsa - kesim deb ko'rsatiladi. Lekin bu gap bo'laklarining turini aniqlashdagi sof amaliy usuldir. Nazariy jihatdan qaraganda, gapdagi u yoki bu so'z shunday so'roqlarga javob bo'lgani yo'q, balki u o'zi to'ldiruvchi yoki kesim bo'lganidan shunday so'roqlarni talab qilayotir.

Shunday qilib, sintaktik aloqa uning turi gapni bo'laklarga ajratishda asosiy omildir. Gapning bo'laklari orasidagi aloqa turli vositalar bilan ifodalanadi: so'z shakllari orqali, yordamchi so'zlar orqali, tartib va ohang orqali.

Gap bo'laklarining turini belgilashda bu vositalarning ma'lum roli bor. Masalan, sifatlovchi sifatlanmishni belgilashda tartib asosga olinadi. Ega bilan kesim bir turkumga oid so'zlardan bo'lganda, tartib ularning qaysi biri ega va qaysi biri kesim ekanini aniqlashga yordam beradi. Qiyoslang: *Yashamoq-mehnat qilmoq, mehnat qilmoq-yashamoq* (birinchi o'rinda qo'llangan bo'lak-ega, ikkinchi o'rinda qo'llangan bo'lak esa kesim).

Gap bo‘laklarining turini belgilashda ba’zan uning qanday so‘z turkumi bilan ifodalanganini asosga oladilar. To‘g‘ri, ba’zi bo‘laklar ko‘pgina muayyan so‘z turkumi bilan ifodalanadi. Biroq ega va kesim bulardan boshqa so‘z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkin. Binobarin, gap bo‘laklarining turini qanday so‘z turkumi bilan ifodalanishiga qarab aniqlash hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Gap bo‘laklarining turini aniqlashda ba’zan uning grammatik shakliga e’tibor beradilar. To‘g‘ri, qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z aniqlovchi, tushum kelishigi shaklidagi so‘z esa to‘ldiruvchi sanaladi. Biroq o‘rin payt, chiqish va jo‘nalish kelishigi shaklidagi so‘zlar to‘ldiruvchi ham, hol ham bo‘lishi mumkin. Bunday vaqtda gap bo‘laklarining grammatik shakli ularning turini belgilash uchun asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi elementlarning semantik xususiyatlarini ham hisobga olinishi lozim. Masalan: *Paxtani zavq bilan terdim* (zavq bilan-hol). *Paxtani mashina bilan terdim* (mashina bilan-to‘ldiruvchi). *Sen nimaga kechikding?* (nimaga hol) *Suvni nimaga quymoqchisan?* (nimaga-gulga to‘ldiruvchi).

Gap bo‘laklarining turi odatda, bir-biriga nisbat berib tayinlanadi. Chunonchi, ega kesimga, kesim egaga nisbatan, to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga, hol hollanmishga, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan tayinlanadi. Nisbat beriluvchi birlik bo‘lmas ekan, u yoki bu bo‘lak haqida ham gapirish mumkin emas. Masalan, aniqlanmish bo‘lmas ekan, aniqlovchi haqida kesim bo‘lmas ekan, ega haqida gapirib bo‘lmaydi. Demak, gap bo‘laklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi birliklarning turi, shakli bir-biriga nisbati leksik-semantik xususiyati va ularni sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar asosga olinadi.

Gap bo‘laklarining strukturasi. Gap bo‘lagi vazifasini so‘zlar bajaradi. Bunda mustaqil so‘zlar nazarda tutiladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar bilan birgalikda gapning u yoki bu bo‘lagi vazifasida keladi. Gapning bo‘lagi ba’zan bir so‘z bilan ifodalansa, ba’zan ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalanadi.

Gapning bo‘laklari o‘z strukturasi ko‘ra ikki xil bo‘ladi: oddiy bo‘laklar va murakkab bo‘laklar.

Oddiy bo‘laklar yakka so‘z bilan ifodalanadi. Bunda qo‘shma, juft so‘zlar ham bitta leksik birlik sifatida qaraladi va gapning yakka so‘z bilan ifodalanagan bo‘lagi sanalaveradi.

Murakkab bo‘laklar bir-biri bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalanadi.

Murakkab bo‘laklar quyidagi hollarda ro‘y beradi.

1. Turg‘un bog‘lamalar gapning murakkab bo‘lagi vazifasida keladi. Turg‘un bog‘lamalar birdan ortiq so‘zning o‘zaro bog‘lanishidan tuzilsa ham, mazmunan va shaklan yaxlit bo‘ladi.

Turg‘un birikmalar ikki xil bo‘ladi: to‘g‘ri ma‘noli va ko‘chma ma‘noli turg‘un birikmalar. Bular ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xshash bo‘lsa ham ba‘zi xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

To‘g‘ri ma‘noli turg‘un bog‘lamalarning ma‘nosi uning tarkibidagi so‘zlarga xos ma‘nolarning oddiy yig‘indisidan iborat bo‘ladi va butun bog‘lanmadan yaxlitligicha to‘g‘ri ma‘no kelib chiqadi.

Ko‘chma ma‘noli turg‘un bog‘lanmaning ma‘nosi uning tarkibidagi so‘zlarga xos ma‘nolarning yig‘indisi sifatida emas, balki shu ma‘nolar ustiga qurilgan ikkilamchi, ustama ma‘no sifatida yuzaga keladi va shu bilan bir vaqtda ko‘chma ma‘no bo‘ladi.

2. Erkin bog‘lanmalar ham gapning murakkab bo‘lagini tashkil qilishi mumkin. Bunda erkin bog‘lanmadagi bir element gapdagi boshqa bo‘lak bilan yakka holda bog‘lana olmaydi. Bu o‘rinda u o‘zi aloqador bo‘lgan so‘z bilan bir butunlikni hosil qiladi. So‘z birikmalarigina emas, hatto, gapga teng qurilishli konstruksiyalar bitta murakkab bo‘lak vazifasida kela oladi.

Umumtilshunoslikda olimlar e‘tiborini o‘ziga jalb etib kelayotgan muammolardan biri gap bo‘laklari, ularning tipologiyasi va kriteriysi masalasidir. Avvalo, bu masalaga doir boy ilmiy manbalar yaratilganligi mutaxassislarga ma‘lum. Chunonchi, A.Nurmonov: “Gap bo‘lagi ma‘lum sintaktik shaklning shakliy sintagmatik- munosabatdagi vaziyatiga qarab belgilanadi: ega vaziyati, kesim vaziyati, to‘ldiruvchi va boshqalar. Natijada ayrim mazmuniy munosabatda

bo‘lgan shakliy jihatdan tobe aloqa orqali emas, balki undash, kirish munosabati orqali ifodalangan birliklar sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi. Bu esa butunni bo‘laklarga bo‘lish asosiga zid keladi. Chunki butun bo‘laklarga ma’lum asosda shunday bo‘linishi kerakki, butunning birorta ham unsuri bo‘linishdan tashqarida qolmasligi kerak. Lekin an’anaviy yo‘nalishda bunday emas. Gap bo‘laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to‘la qamrab olmas ekan, demak, gapni bo‘laklarga gap bo‘laklari rubrikasi ostida ajratish - yetarli asosga ega emas. Shuning uchun bu tilshunoslikda eng munozarali masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilish jihatdan uning ziddiyatini hisobga olgan holda quyidagicha sintaktik shakllarga bo‘lish mumkin:

1. Sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar.
2. Sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar.

Birinchi an’anaviy gap bo‘laklari hisoblanadi. Ya’ni tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo‘lagi sanaladi. Tobe aloqadorlik asosidagi so‘z shakllar juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi. Bunda tobe qismning vaziyati aniq, hokim qism vaziyati esa noaniq bo‘ladi. Uning qaysi vaziyatda kelganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi. Gap bo‘lagi ham til birligi sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi birligidan iborat. Shakl va mazmun tomoni ham o‘zining muayyan unsurlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun gap bo‘laklari shakliy va mazmuniy tuzilishlarini hamda ular o‘rtasidagi munosabatni belgilash nazariy tilshunoslikning muhim vazifasidir”⁷, - deb ta’kidlaydi.

“Gapning ikkinchi darajali bo‘lagi haqidagi traditsion tasnif” – deb yozadi V.V.Vinogradov, - tubdan qayta ko‘rib chiqishga muhtojdir”. Yana bir o‘rinda u quyidagicha fikr yuritadi: “Gapda ajratilayotgan uchta ikkinchi darajali bo‘lak va ularning turlarga (rublikalarga) bo‘linishi, gap sostavida so‘zlarning juda ko‘p jonli

⁷ Nurmonov A., Sodda gap va uning mazmuniy qurilishi, Ochiq ma’ruza. Navoiy, 2009-y. 8-9-betlar.

sintaktik aloqalarining ko‘rsatilayotganligi grammatik jarayonlarga emas, balki gap strukturasi sun‘iy sxematizatsiyasiga asoslanib amalga oshirilmoqda”⁸.

A.G‘.G‘ulomov gap bo‘laklari ikki bosqichli tasnifga ega ekanligini, bu tasnifga ko‘ra bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar ajratilishi maqsadga muvofiqligini uqtiradi. Uchinchi darajali bo‘lakni ajratuvchi olimlarni (M.Z.Zakiyev, A.R.Sayfullayev) tanqid qilib, o‘z fikrini quyidagicha xulosalaydi: “Yangi grammatikada gap bo‘laklarining traditsion tasnifi saqlanadi, undalma, kirish va kiritmalar gap bo‘lagi sanalmaydi”⁹.

A.Hojiyev va N.Mahmudovlar o‘zlaridan oldin shu sohada ish olib borgan olimlarning fikrlariga asoslanib, gap bo‘laklarini belgilashda, ularni gap strukturasi to‘g‘ri va ob‘ektiv tayin etishda gapning pozitsion struktura ekanligidan..... hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan sintaktik pozitsiya tushunchasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq ekanligini uqtiradilar.

Gap bo‘laklari maqomini belgilashda uzoq davrlardan buyon “tobe-hokim munosabatda bo‘lishlik” va bu munosabatda “tobe pozitsiyada turishlik” belgilari tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qildi. Ana shu belgiga muvofiq gap bo‘laklarini ikki darajaga – bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘lish an‘ana tusiga kirgandi. Bu sohada keyingi qilingan tadqiqotlar sintaktik nazariyada burilish yasadi. Gapning tuzilish va mazmuniy markazi sifatida kesimning e‘tirof etilishi va egani kesimning “bo‘sh o‘rin”larini to‘ldirib keluvchi argumentlar qatoriga o‘tkazilishi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar tushunchasini qayta ko‘rib chiqish muammosini keltirib chiqardi. O‘zbek tilshunosligida bu muammo 80-yillar boshlarida ko‘tarilgan bo‘lsa, hozirgi kunda kesimning gap tuzilishida yetakchilik qilishi, ega, to‘ldiruvchi, hollar kesimning “bo‘sh o‘rinlari”ni to‘ldirib, uni kengaytiruvchilari hisoblanishi keng ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etildi.

Predikativlik shaklidagi eng kichik birlik minimal gap (yig‘iq gap) hisoblanishini bugungi kunda deyarli barcha tilshunoslar tan olmoqda. Predikativlik shaklidagi birlik esa kesim sanaladi. Darhaqiqat, gapning asosi

⁸ Мухамматов А.Р., диссертация, “Ўткан кунлар” романида гап бўлаklarининг қўлланилиши, 2006. – Б.-8.

⁹ O‘sha dissertatsiya: 16-bet.

kesim, boshqa bo‘laklar uning kengaytiruvchilari hisoblanishiga diqqat jalb etilsa, kengaytiruvchilari soqit qilinsa ham, kesimning o‘zi gaplik belgisini o‘zida saqlaydi. Kesimning egaga nisbatan yetakchilik qilishi haqidagi fikr ilmiy jamoatchilik orasida tarqalmasdan oldinoq A.G‘ulomov o‘*qidim* tipidagi tushlangan fe‘llar eng kichik gaplar ekanligi, kesim eng kichik gapga tengligi haqida bahs yuritgan edi. Gapning eng muhim belgisi predikativlik ekan, ana shu ma‘noni ifodalovchi eng kichik birlik gap sanaladi. Kesim predikativ ma‘no va predikativ shaklga ega bo‘lgan eng kichik birlik sifatida gapning bo‘lagi emas, balki gapning o‘zidir.

“O‘zbek tili”ning mualliflari tuzilishiga ko‘ra kesimni *sodda, qo‘shma, birikmali* turlariga ajratib, sodda kesimning mustaqil so‘z, yordamchi so‘zlar, birikmali kesimning so‘z birikmalari, turg‘un bog‘lamalar bilan ifodalanishini ko‘rsatganlar.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) ning akademik nashrida tuzilishga ko‘ra ega *sodda, birikmali*; kesim *sodda, birikmali, sostavli, qorishiq, tarkibli* tiplarga ajratiladi. Sh.Sh.Shoazizov eganing so‘z va so‘z birikmasi bilan ifodalanishiga asoslanib, sodda va birikmali tiplarga ajratgan.

H.Abdullayev so‘z qo‘shilmalarini leksik va sintaktik birliklarga ajratadi. Qo‘shma, juft, tarkibli so‘z, frazeologik iboralar bilan ifodalangan bo‘lakni sodda; sintaktik birliklar bilan ifodalangan bo‘lakni sostavli, murakkab, kengaytirilgan bo‘laklar sifatida ajratishni taklif qiladi¹⁰.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1979) nomli qo‘llanmada gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari strukturasi ko‘ra *sodda, murakkab, sostavli kesimga nisbatan* tiplariga ajratilgan. A.R.Sayfullayev ham gap bo‘laklari *sodda, sostavli, murakkab* tiplarga ajratadi va sodda bo‘lakning so‘z birikmasi bilan, murakkab bo‘lakning birdan ortiq so‘zdan tashkil topgan, bir tushuncha anglatadigan birliklar bilan ifodalanishni ko‘rsatadi¹¹.

¹⁰ O‘sha dissertatsiya: 30-bet.

¹¹ O‘sha dissertatsiya: 30-bet.

“O‘zbek tili grammatikasi”ning sintaksisga bag‘ishlangan II jildida gapda so‘z tartibi haqida: “O‘zbek tilida so‘zlar tartibi asosan erkin, lekin unda so‘zlarning bog‘liq tartibi ham uchraydi. Bu hol o‘zbek tili gap qurilishining o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi. Ba‘zan bo‘laklar gapdagi turli o‘rinlarda kela olsa, ayrim bo‘laklar faqat muayyan o‘rinda keladi”. Holning gapdagi tartibi shunday tushuntiriladi: “Hol hollanmishdan oldin turadi”. Bu yerda ham holning egaga nisbatan qanday o‘rinlarda bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z yuritilmagan.

Keyingi davr ilmiy adabiyotlarida “O‘zbek adabiy tilida hol harakat, holatning qanday bajarilishi shu sharoitga bog‘liq bo‘lgan sabab, maqsad, payt, o‘rin, miqdor-daraja ma‘nolarini ifodalaydi va u fe‘l bilan ifodalangan bo‘lakka tobe bo‘ladi. Hol o‘zi bog‘lanib kelgan hokim so‘zdan oldin keladi. Lekin so‘zlashuv nutqida hollar ko‘pincha bu tartibga bo‘ysunmaydi.

So‘zlashuv nutqi materiallari ko‘rsatishicha, hollarning tartibi ularning gapda bajargan kommunikativ vazifasiga ham bog‘liq.

Hol turlaridan ravish va o‘rin hollarining tartibida faollik seziladi. Ko‘pincha ravish holining o‘rni uning kommunikativ ahamiyati va qanday so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra belgilanadi. Ravish holi ekspressivlikni oshirish va fikrni kuchli ifoda etish maqsadida ko‘pincha kesimdan oldin keladi va bunday ravish hollari ot va ravish orqali ifodalanadi: To‘lqinga qo‘shilib oqib ketding... Oqib ketding-ku?.. (Sharq yulduzi, 1996-yil, 3-son, 147.)¹².

“Hozirgi o‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasida “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklari qat‘iy tartibga ega emas”, “...bo‘laklar tartibini xohlagancha o‘zgartirish mumkin”, deb qaralsa-da, tartibning bunday erkinligi “mazmunan bir xil”, lekin “uslubiy jihatdan keskin farq” qiladigan gaplarni yuzaga keltirishi ta’kidlanadi.

E.Qilichevning ta’kidlashicha, “Gapda so‘zlar tilning qonun-qoidalari asosida birikadi va shu qoidaga mos holda muayyan izchillikda joylashadi. O‘zbek tilida har bir gap bo‘lagining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu o‘rin matnda o‘zgartirib

¹² Musayev A., O‘zbek so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklari tartibi, “Fan” nashriyoti, T.: 2011-yil, 40-bet.

qo‘llanishi ham mumkin. Shunga ko‘ra gap bo‘laklarida to‘g‘ri va teskari tartib farqlanadi¹³.

Gap bo‘laklarining gap sintaktik tuzilishini tashkil qilishdagi o‘rni bir xil emas. Ayrim bo‘laklar gap tuzilishida yetakchi o‘rin egallaydi. Shunga muvofiq gap bo‘laklari an’anaviy tilshunoslikda ikki darajaga bo‘lib o‘rganilib kelinmoqda:

- a) bosh bo‘laklar;
- b) ikkinchi darajali bo‘laklar.

Gap bo‘laklarining darajalanishi haqida hozirgi kunda boshqa fikrlar ham aytilmoqda. Darajalanish tamoyillari yangicha talqin etilmoqda.

Bizningcha, gap bo‘laklari darajalanishining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklar leksik ma’no ifodalaydi. Masalan, ega va kesim leksik va semantik xususiyatga ko‘ra shaxs, predmet, belgi, miqdor, harakat, holat, o‘rin-joy ma’nolarini bildiradi.

Undalma leksik-semantik xususiyatga ko‘ra shaxs, jonli va jonsiz predmetlarga va o‘z-o‘zini undash ma’nosini bildiradi.

2. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklarning turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishidir. Masalan, ega va undalma ot, otlashgan so‘z bilan ifodalanadi.

3. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklar o‘zaro semantik va grammatik bog‘lanishi mumkin. Ega bilan kesim moslashuvi va undalma gap bo‘laklari bilan muvofiqlashuvi orqali bog‘lanadi.

4. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklarning gapdagi vazifasida ma’lumki, gapdagi bo‘laklar vazifasiga ko‘ra an’anaviy tilshunoslikda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratiladi.

Undalma va kiritmalarni sintaktik xususiyati, grammatik ifodalanish tarkibi, semantik-grammatik bog‘lanishi va gapdagi vazifasiga qarab gapning uchinchi darajali bo‘laklari deb atash mumkin.

Bosh bo‘laklarda shakl va mazmun munosabati. Bosh bo‘laklar haqidagi asosiy qarashlar. Gap ikki a’zoning ega va kesim qismlarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Bosh bo‘laklar ega va kesimdan iborat. Lekin bu

¹³ Ўзбек тили ва адабиёти. Журнал. 2001 йил. 3-сон. 124 б.

ikki bo‘lak munosabati haqida tilshunosligimizda turli xil fikrlar aytiladi va aytilmoqda. Bu fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi mulohazalarni sanab o‘tish mumkin:

1. Gapda asosiy bo‘lak ega sanaladi. Ega o‘z tarkibiga ham hokimlik qiladi. Bu narsa gapning nominativ tomonini aks ettiradi.

2. Ega va kesim teng huquqli bosh bo‘lak hisoblanadi. Bu nuqtai nazar hukm ikki a‘zoning - subekt va predikat qismlarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi, degan mantiqiy nazariyaga asoslanadi.

3. Kesim asosiy hokim bo‘lakdir. Gapning eng muhim tashkil etuvchi konstruktiv bo‘lagi kesim bo‘lib, ularni shakllantiruvchi vositalar - kesimlik shakllarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ko‘rinib turibdiki, ega bilan kesim tilshunoslikka oid adabiyotlarda bosh bo‘lak sifatida olib qaralsa ham, lekin gap qurilishida kesim birinchi o‘rinda turadi. Kesimning gap qurilishida yetakchi roli turkiy tillarda yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek tilshunoslari kesimni morfologik kategoriya - kesimlik kategoriyasini uning sintaktik vazifasi sifatida belgilashadi va kesimning ham, gapning kichik qurilish qolipi kelishik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi sifatida ajratadi. Kesim morfologik shakl orqali belgilansa, gap kesim orqali nutqda bir kesimga tobelangan so‘zlar tizmasi sifatida ta’riflanadi.

Gapning tavsifi tasdiq - inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va hokozolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim va gapga bunday yondashish ularni sof lingvistik tushunchalar sifatida o‘rganish va ularni mantiq kategoriyalari xususiyatlaridan ozod qilishga imkon beradi. Kesim gapni tashkil etuvchi markaz, mutloq hokim bo‘lak mavqeiga ko‘tarildi.

Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o‘ynasa, qolgan bo‘laklar kesimni kengaytiruvchi vazifasini bajaradi. Gapning yangi axborot tashuvchi qismi ham kesimi sanaladi. Xullas, kesim ham uyushtiruvchi markaz, ham axborot markazidir.

Gap tarkibida eganing mavjudligi kesim vazifasida kelgan so‘zning ma’nosi bilan emas, balki kesimlik grammatik shaklning - jumladan uning

tarkibidagi shaxs-son ma'nosi bilan bog'liqdir. Ega-kesimlik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiradi. Shu sababli gapning sintaktik tuzilishiga bevosita aloqador qism - gap kengaytiruvchisi deb baholash lozim. Grammatik shakl valentligini voqealantiruvchi vositalardan biri - gap kengaytiruvchilari gapning butun mazmuni, xususan, ma'nosi bilan uzviy bog'liqdir.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiruvchi, oydinlashtiruvchi bo'lak ekanligi III shaxs ma'nosini va shaklda kelgan hollarda yorqin namoyon bo'ladi. *Yozdi*. Bu gapda III shaxs ma'nosi juda keng, u nutqda aniqlashtirishni talab qiladi. Masalan: Gulnora yozdi va Sanobar yozdi, kabi. Xullas, ega haqida axborot kesim shakli orqali bilinib turadi. Ega ham tilshunosligimizda birlik sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan bir butunlikdir.

Gapda vazifa bajarishi jihatidan bo'laklar bir xil emas. Ba'zi gapning mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi, ularning qo'llanmasligi gap mazmunini tubdan o'zgartirib yubormaydi. Ba'zi bo'laklarning gapda ishtirok etishi zarurdir, chunki ularsiz gap maydonga kelmaydi. Shu nuqtai nazardan gap bo'laklari ikki turga ajratiladi: bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar.

"Ikkinchi darajali bo'lak" tushunchasi "yoyiq gap" tushunchasi bilan chambarchas bog'langandir. Chunki sodda gaplarni yig'iq va yoyiq gaplarga ajratish ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga qarab belgilanadi.

Yig'iq gaplar bosh bo'laklardan tuziladi. Yoyiq gaplar esa, bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topadi. Yoyiq gaplarning ba'zilarida birgina ikkinchi darajali bo'lak qatnashsa, boshqalarida bir necha ikkinchi darajali bo'lak qatnashadi.

Bosh bo'laklar bilan ikkinchi darajali bo'laklarning o'zaro munosabatida bosh bo'laklar-hokim, ikkinchi darajali bo'laklar esa ularga tobe bo'ladi.

Hokim va tobelik qonuniyatiga asosan gap bo'laklari atamasi va tushunchasini ifodalashda bir xillik yo'q. Chunki ular boshqaruvchi va

boshqarilmish vaziyatidir. Shu vaziyat asosida eganing boshqarilishi kesim, aniqlovchiniki aniqlanmish, sifatlovchi sifatlanmish, izohlovchi izohlanmish, qaratqich qaralmish. Lekin to'ldiruvchi va holning zid jufti grammatik atamashunosligimizda yo'q.

To'ldiruvchi tushunchasi va atamasining zid jufti sifatida to'ldirilmish tushunchasi va atamasini, hol tushunchasi va atamasining zid jufti sifatida hollanmish tushunchasi va atamasini tavsiya qilamiz. Bunday atashdan maqsad:

- 1) hodisalarni to'liq atash;
- 2) to'g'ri va o'rinli atashga erishish;
- 3) tilimiz grammatik qurilishidagi mikrosistemalarni to'g'ri anglash va baholashga erishish.

Gapda ega-mutlaq hokim. U o'z tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarga ham, kesimga ham hokim. Kesim esa faqat o'z tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarga hokim.

Ega va kesimni bosh bo'laklar deb, to'ldiruvchi, aniqlovchi va holni ikkinchi darajali bo'laklar deb ko'rsatilishi ularning biri hokim, ikkinchisi tobeligidan emas, balki ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlaridandir. Bu xususiyat gap bo'laklarining nutqdagi funksiyalari asosida kelib chiqadi.

Ikkinchi darajali bo'laklarsiz bosh bo'laklar alohida, to'liq gap tashkil eta olmaydi, ular gapda bosh bo'laklarga bog'liq holda qatnashadi.

Demak, ikkinchi darajali bo'laklar bir-birlarining ma'nosini bevosita izohlab, to'ldirib, shular orqali gapdagi bosh bo'lak ma'nosini to'ldirishga ko'maklashadi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini ajratishda ularning obyektiv holli tushunchalarni ifodalashi asos qilib olinadi, bu tushunchalar turli grammatik shakllar orqali ifodalanadi. To'ldiruvchilarning ifodalanishida morfologik asos bo'lib xizmat qiluvchi so'zlar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari shaklidagi ot va otlashgan so'zlar sanaladi: *Egilgan boshni qilich kesmas (Maqol). Yaxshiga yondash, yomondan qoch (Maqol).*

Aniqlovchilarning ifodalanishida morfologik asos bo‘lib sifat, sifatdosh va boshqa so‘zlar xizmat qiladi: Uning ziyrak, qo‘ng‘ir ko‘zlarida *horg‘inlik* bor edi (S.Anorboev).

Hollar, asosan, ravish va ravitishdoshlar bilan ifodalanadi: *U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi* (S.Nazar).

Demak, bevosita bosh bo‘lakka, o‘rni bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lakni izohlovchi, aniqlashtiruvchi sintaktik kategoriyalar ikkinchi **darajali bo‘laklar** deb yuritiladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar *to‘ldiruvchi, aniqlovchi* holdan iborat¹⁴.

Hol ikkinchi darajali bo‘laklarning eng murakkabidir. Hol harakat-holatning qanday holda?, qay vaziyatda?, qay usulda?, qachon?, qayerda?, nima uchun?, nima maqsadda?, qanday shart bilan? bajarilishi, bajarilish miqdori, darajasi, harakat-holatning bajarilishida subyektning qanday holatda bo‘lishi kabi bir qancha belgilarni ko‘rsatadi; subyekt, predikat va obyekt munosabatlarini reallashtiradi, ularning obyektiv borliqqa munosabatini belgilaydi.

To‘ldiruvchiga nisbatan holning qo‘llanish doirasi ancha keng. Har qanday yig‘iq gapni holning u yoki bu turini qo‘shish bilan yoyiq gapga aylantirish mumkin. Lekin to‘ldiruvchi yordamida kengaytirib bo‘lmaydi. Masalan, *Konsert tamom bo‘ldi. Konsert juda kech tamom bo‘ldi* (A.Qahhor). Kengayish aniqlovchilar yordamida ham amalga oshadi.

Hol boshqaruv va bitishuv yo‘li bilan hokim bo‘lakka ergashadi. Holning boshqarilishi kelishikli, ko‘makchili va aralash vositalar bilan amalga oshiriladi¹⁵.

Hol semantik-sintaktik qurilishi jihatidan bir necha turlarga bo‘linadi. Tilshunoslikka oid darsliklarni kuzatar ekanmiz, ularda holning turlarini aniqlashda har xilliklar borligining guvohi bo‘lamiz.

Xususan, “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida holning tarz holi, miqdor-daraja holi, sabab holi, maqsad holi, shart holi, to‘liqsizlik, o‘rin holi, payt holi turlari berilgan. Darsliklarni kuzatishda davom etsak, A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning fikricha, hollar mazmundagi farqlarga ko‘ra quyidagi turlarga

¹⁴ Б. Ўринбоев, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд: 2001. 45-б.

¹⁵ Б. Ўринбоев, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд: 2001. 51-б.

bo‘linadi: ravish holi, o‘rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart va to‘siqsizlik hollari kabi¹⁶. Shuningdek, tilshunos olimlar M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning tasnifida holning quyidagi turlari ko‘rsatiladi: ravish holi, o‘rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi kabi¹⁷.

Pedagogik amaliyot davomida ko‘rdikki, umumta’lim maktab va akademik litseylarning darsliklarida tilshunos olimlarning fikrlari asosida holning quyidagi turlari ko‘rsatilgan: payt holi, o‘rin holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi va maqsad hollari kabi.

Ravish holi harakatning qanday bo‘lishini, bajarilish sifatini aniqlaydi: *U yaxshi gapirdi. Talaba sekin o‘rnidan turdi kabi.* Ravish holi harakatning qanday bo‘lishini ba’zan o‘xshatish yo‘li bilan anglatadi: *Paxtalar chamanday ochildi. Yigit bulbul bo‘lib sayradi.*

O‘rin holi harakatning bo‘lishidagi umumiy o‘rin mazmunini anglatadi: *U kecha qayerga ketgan edi? Shu yerda edi kabi.*

Payt holi harakatning, ishning bo‘lish vaqtini anglatadi: *U kechqurun keldi.* U payt ravishi yo shu ma’nodagi so‘z, masalan, ot bilan ifodalanadi. Payt holi o‘rin holi bilan bir xil formada ham kelaveradi, biroq shu so‘zning leksik ma’nosi, o‘rin anglatishi uni aniqlab beradi: *U maktabda o‘qiydi.- U yozda dam oladi.* Payt holi ba’zan ravishdosh bilan ifodalanadi. *Masalan, Chol keta turib o‘g‘liga nasihat qildi: keta turib – qachon?*

Sabab holi harakatning bo‘lishigagi sabab ma’nosini anglatadi: *U sevinganidan chirqirib yubordi.*

Maqsad holi ishning bo‘lishidagi maqsadni anglatadi: *Xolida shaharga tomosh uchum keldi kabi.*

Miqdor-daraja holi harakatning bajarilishini miqdor-daraja jihatidan xarakterlab keladi (harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi yoki aksi, bajarilish darajasi va sh kabilarni) : *Karima uzoq tayyorlandi. U kam gapirdi.*

¹⁶ A.Фулумов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1987, 118-бет.

¹⁷ М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов. Ўзбек тили. Т: 1978, 182-бет.

Opasi juda shoshildi: poyezdning ketish vaqti yaqin qolgan edi kabi. Bu hol miqdor-daraja ravishlar bilan ifodalanadi.

Shart va to'siqsizlik hollari: 1. Shart holi fe'l bilan ifodalangan bo'lakka bog'lanib, harakatning bajarilish shartini bildiradi. Bu hol shart mayli formasidagi fe'l bilan, ravishdosh oborot bilan, ko'makchili konstruksiya bilan ifodalanadi. Masalan: U bugun ulgursa keladi. Paxta planini mashini ishlatib bajara olamiz.

2. To'siqsizlik holi harakatning bajarilishiga to'siq bo'lgan shartni (lekin harakatning o'sha shartning bo'lishiga qaramay bajarilganligini) bildiradi. Bu hol ko'pincha turli tipdagi oborotlar bilan ifodalanadi. Masalan: *U kuchli yomg'irga qaramay yetib keldi. Uyga mehmon kelib qoldi, shunga qaramay kelaverdim.*

1.3. Holning oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan o‘rganilishi.

Ajratilgan izohlarning sintaktik vazifasiga ko‘ra, izohlanmish so‘zlarga teng bo‘lib, ular qanday vazifada bo‘lsa, bular ham shu vazifada keladi. Shunga ko‘ra, ajratilgan izohlar to‘rt turga: ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan to‘ldiruvchilar va ajratilgan hollarga bo‘linadi.

Shulardan ajratilgan izoh hollarga qarasa, ajratilgan izoh hollar, odatda, boshqa bir holdan so‘ng kelib, o‘zidan oldingi holning ma’nosini izohlaydi, aniqlaydi; aniqlab, izohlabgina qolmasdan, izohlanayotgan so‘zning ma’nosini bo‘rttirib, boshqa gap bo‘laklarining ma’nosidan ajratib ko‘rsatadi: Qishda, dalada ish yo‘q kezlarda, kitob o‘qiydi. Ko‘kda, daraxtlar ustida, g‘uj-g‘uj yulduzlar yog‘di.

Ajratilgan izoh hol so‘rog‘i hamda vazifasiga ko‘ra, izohlanib kelayotgan so‘zga teng bo‘ladi, lekin ifodalanish materialiga ko‘ra, izohlanmish bo‘lakka teng bo‘lavermaydi. Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Siddiqjonga hamroh bo‘lib qoldi.

Ajratilgan izoh hollar nutqda keng qo‘llanadi. Ayniqsa o‘rin va payt holining ajratilishi boshqa xil hollarga nisbatan ko‘proq uchraydi.

1. Ajratilgan izoh o‘rin holi: U yerda olomon orasida, bir necha suvori otlardan tushayotgan edi.

2. Ajratilgan izoh payt holi: Bugun, darsdan keyin, maktabda ota-onalar yig‘ilishi chaqirilgan edi.

3. Ajratilgan izoh ravish holi: Qo‘llar ishlar tez--mo‘jizakor. Yillar mana shu xilda, osoyishta o‘tar edi.

4. Ajratilgan izoh maqsad holi: Kelibman bir dimoqim chog‘im chog‘ etay deb, Ko‘ngulni dardu g‘amdan sog‘etay deb.¹⁸

Hol ikkinchi darajali bo‘lak harakatning bajarilishidagi turli holatlarini bildiradi, harakar-belgini xarakterlaydi: harakatning bajarilishi, holatining u\yuzaga kelishi, shu bilan bog‘langan shart, sabab, maqsad, payt, o‘rin, miqdor-

¹⁸ F. Абдурахмонов . Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: 1996, 92-б.

daraja. Hol fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobe bo'ladi. Masalan: U tez yurdi. Fotima kulib so'zladi.

Hol ravish bilan ifodalanadi, biroq o'rni bilan boshqa so'zlar ham hol bo'lib kela oladi. Uning umumiy ko'rinishi shunday: ravish+fe'l, fe'l (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi normalari)+fe'l, ot+fe'l; sifat+fe'l; son+fe'l; mimema+fe'l.

Ravish+fe'l: U **kecha** kelgan edi. U **doim** a'lo o'qiydi. Men **yolg'iz** bormayman, sen bilan **birga** boraman. U birdan qichqirdi.

Sonlar gol vazifasida kelganda ko'pincha marta so'zi qo'llanadi (U uch marta qichqirdi), ba'zan marta so'zi qo'llanilmaydi ham: **Yuz** aytdim, **ming** aytdim – quloq solmading.

Fe'l+fe'l: U **kulib** so'zladi. U **jilmaygan holda** kirib keldi.

Hol vazifasida asosan ravishdosh keladi. Bu vazifada sifatdosh kelganda esa holda, ravishda, so'zlaridan biri yordam qiladi, sifatdosh shu so'z bilan birgalikda hol bo'ladi: U **quvongan** holda gapirdi.

Ot+fe'l: Biz **toqqa** chiqdik. U **maktabdan** keldi.

Bu vazifada kelganda otlar o'rin kelishiklar formasida, shuningdek, ko'makchi bilan birikkan bo'ladi. Ba'zan ular biror affiks yoki ko'makchi olmagan holda keladi. Bu vaqtda sintaktik holat—bog'lanish uning hol vazifasini bajarayotganini ko'rsatib turadi. Masalan: 1. Qo'rqqanga sichqon **fil** ko'rinadi. 2. **Oy** borib, **omon** kelsin frontga ketgan yolg'izim.

Mimema+fe'l: Yomg'ir **shatir-shutur** yog'di.

Hol ba'zan ajralmas birikma bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: U **o'tgan yilil** sayohatga ketgan edi. Men **bir ming qo'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi yilda** to'g'ilganman. U **o'qishni yaxshi ko'rganligi uchun keldi**.

Hol o'z hokim so'ziga bitishuv, ba'zan boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. Hol bilan to'ldiruvchi ba'zan bir xil formada bo'ladi. Buni ularning grammatik — mzmun holatiga, so'roqlariga qarab farqlash mumkin: to'ldiruvchi vazifasidagi so'z anglatgan predmet ma'nosining xarakteri, hol vazifasidagi otning ravish bilan almasha olishi va boshqalar. Misollar: Bola uchun **maktabdan** ortiq sevimli narsa yo'q (nimadan? — to'ldiruvchi). — Bola **maktabdan** keladi (qayerdan? — hol).

Yana chog'ishtiring: "Qorning nimaga ochdi?" — so'radi onasi. — "Bodirinn!" — javob berdi bola. Bunday nimaga? so'zi — to'ldiruvchi. Agar nima sababdan? (nega?) ma'nosida ishlatilsa, bu bo'lak hol bo'ladi (Bunda javob ham boshqa bo'ladi): "hech narsa yemaganimga" kabi.

Hol to'ldiruvchdan keyingi keyingi ikkinchi darajali bo'lak bo'lib, ish-harakatning belgi-sifatini, uning bajarilish usulini, shu bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'rin, payt, sabab, maqsad, shart-shroit, miqdor-daraja kabi xususiyatlarni ko'rsatadi. Demak, hol ish-harakatni biror jihatdantavsiflaydigan – xarakterlydigan bo'lakdir.

Hol quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

1. Ravish bilan. Ravishning barch turlari hol vazifasida kela oladi: Unsun bu ishlarni **tezda** o'rganib oldi. Sayohatchilar kechqurun Burchmullaga yetib kelishda.

2. Fe'l bilan. Odatda fe'lning ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi formalari hol vazifasida keladi. Ravishdosh grammatik o'zgarishsiz hol vazifasini bajara oladi. Sifatdosh va harakat nomi hol vazifasini bajarish uchun yo so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar qabul qiladi, yoki yordamchi so'zlar bilan birga qo'llanadi: Odil **uyalganidan** qizarib ketdi. Injiener Manzura bilan **ko'rishish uchun** o'rnidan turdi.

3. Ot bilan. Ot hol vazifasida kelganda ko'pincha kelishik qo'shimchalari qabul qiladi yoki ko'makchilar bilan birga qo'llaniladi. Biroq u ba'zan ko'makchisiz va kelishik qo'shimchasisiz ham hol vazifasini bajarishi mumkin: Haydar ota **bir kuni** Ultarmaga borib, tegitmondan xabar oldi.

4. Sifat bilan. Bunda sifat yo ravish ma'nosida qo'llanadi yoki yordamchi so'zlar bilan birga ishlatiladi: Shishgan ikki ko'zi loy va qon orasidan **kuchsiz** yaltirar edi.

5. Son bilan. Son ko'pincha boshqa so'zlar bilan birga kelib hol vazifasini bajaradi. Biroq u ayrim vaqtlarda yakka o'zi ham hol vazifasida kela oladi: Kulub mudiri zalni **ikki marta** tartibga chaqirdi.

6. Olmsh bilan. Olmsh ko‘pincha kelishik qo‘shimchalari olib yoki ko‘makchilar bilan birga kelib, hol vazifasini bajaradi. Biroq ba’zi olmoshlar qo‘shimchasiz ham hol vazifasida kela oladi: Dadamning ixtiyori o‘zida, chirog‘imizni **qachon** istasa **o‘shanda** yoqib beradi. 7. Taqlid so‘z bilan. Taqlid so‘z yakka holda yoki etib, qilib kabi yordamchi fe’llar bilan birga hol vazifasida keladi. Hayot **piq-piq** yig‘lar, yelkalari **bir-bir** titrar edi.¹⁹

Hollarning morfologik paradigmasi uning turini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Holga bag‘ishlangan ayrim ishlarda holning olti turidan uch turi ko‘rsatilgan²⁰.

Bizningcha, holning sakkizta ma’no turini farqlash maqsadga muvofiqdir: tarz holi, o‘rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart holi, to‘siqsizlik holi kabilar.

Tarz holi ish-harakatning bajarilish holati, usuli va sifatini bildiradi. Tarz holi odatda fe’lga bog‘lanadi va quyidagi so‘zlar bilan ifodalanadi:

1. Holat ravishi bilan: *Uning ko‘ziga yosh keldi, bu safar tez-tez kiprik qoqib yoshini yutdi ("Sarob" 57-b). Yaxshimi, yomonmi, bir gap bo‘lsa, darhol aytish kerak! ("Sarob" 243-b) Saidiy oyog‘ining uchida yurib kelib ish stoli yonidagi kursiga sekin o‘tirdi ("Sarob" 246-b). Gul sekin-sekin so‘ladi, sekin-sekin go‘zalligini yo‘qotadi...("Sarob" 59-b). Munisxon o‘zini soddalikka solib Saidiyning yigitlik qonini tez-tez ko‘pirtirib turar edi ("Sarob" 58-b).*

2. Sifat bilan. Bunda sifat holat ravishi ma’nosida qo‘llanadi. Sifat tarz holi vazifasida kelganda *ravishda, suratda, holda, tarzda* kabi so‘zlar bilan birga qo‘llanilishi mumkin: *...oila masalasi o‘zingizga ma’lum bo‘lganligi uchun, bunga keng ravishda to‘xtalib o‘tirishni lozim ko‘rmayman (A.Qahhor). ...o‘z muhabbatimni yana bir marta amaliy suratda izhor qilgani ruxsat berishingizni talab qilaman (A.Qahhor).*

3. Ravishdosh bilan. Bunda ko‘proq ravishdoshning -a(y) va -i(b) qo‘shimchalari bilan yasalgan turi qo‘llanadi: *Paxtalarni quvnay-quvnay teraman*

¹⁹ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т.: 1976.

²⁰ Б. Ўринбоев, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд: 2001. 51-б.

(*qo‘shiq*). Keyin Saidiy xotin-qizlarga yangilik borligini garchand qistasa ham qiz labini tishlab bosh chayqar edi (*“Sarob” 35-b*). Avtobus ko‘zdan yo‘qolguncha Saidiy haykalday qotib qarab qoldi (*“Sarob”, 37-b*). Men shoshib turibman, to‘ydan gaplashaylik (*A.Qahhor, Ayajonlarim, IVtom, 24-b*).

4. Sifatdosh bilan. Bunda odatda –gan shaklidagi sifatdosh qo‘llanadi va u holda, tarzda kabi so‘zlar bilan birga tarz holi vazifasini bajaradi: Saidiy uzoq yo‘ldan charchab kelganday qo‘llarini osiltirgan, bukchaytirgan holda o‘tirar edi. (*“Sarob”, A.Qahhor*). Saida qo‘llarini osiltirgan holda o‘tirar edi. (*A.Qahhor*).

5. Ot bilan. Bunda ot ko‘pincha chiqish va o‘rin-payt kelishigi shaklida qo‘llanadi: Do‘stim, seni chin yurakdan tabriklayman.

6. Olmosh bilan. Bunda odatda sifat xarakteridagi olmosh qo‘llanadi. Bu olmosh yakka holda yoki qilib, tariqa, holda, tarzda, yo‘sinda, sharoitda kabi so‘zlar bilan birga tarz holi vazifasini bajaradi: Shunday qilib har soatda o‘n besh minut dam olish odati ham unutildi (*“Sarob”, 47-b*). Ayamni qanday qilib ko‘ndirdingiz (*A.Qahhor*). Shunday qilib bular juda inoqlashib ketishdi (*“Sarob”, 55-b*).

Taqlid so‘z bilan: Bunda taqlid so‘z yakka holda yoki etib, qilib kabi ravishdosh shaklidagi yordamchi fe‘llar bilan birga keladi: Qiz bola shu ekanda katta bo‘lib endi qanotingga kirganda pirr etib uchadi-ketadi (*A.Qahhor, Ayajonlarim, 9-b*). O‘zi qaltirar g‘ilt-g‘ilt etib tupugini yutar edi (*A.Qahhor, Ayajonlarim, 260-b*).

O‘rin holi harakat holatning ro‘y berish, boshlanish, yo‘nalish o‘rnini va bu yo‘nalishdagi oxirgi punktni bildiradi. O‘rin holi fe‘l bilan ifodalangan bo‘lakka ham, ot bilan ifodalangan bo‘lakka ham bog‘lana oladi: Eshikdan Ehsonning do‘sti Pavel Shafrinning tovushi eshitildi (*“Sarob”, 38-b*). Har yerni qilma orzu, Har yerda bor toshu tarozi (*maqol*).

O‘rin holi o‘rin ravishi joy nomini bildiruvchi ot va o‘rin-joyga ishora qiluvchi olmosh bilan ifodalanadi: Ko‘chaning narigi yuzidan uni kimdir chaqirdi (*Anor, 163-b*). Javlon uyda biroz shirakayf ekan, mehmonlarni ko‘rib juda

suyunib ketdi... (Anor, 37-b). Marg'uba oshxonaga kirib jiz-biz boshladi (Anor, 37-b). Katta arava qayerdan yursa, kichik arava ham shu yerdan yuradi (maqol).

O'rin holi quyidagi o'rin-joy ma'nolarini anglatadi:

1. Harakat holatning ro'y berish o'rnini bildiradi. Bunda o'rin holi o'rin-payt kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi: *Olqorda bo'lgan urushda Is'hoq afandiga o'q tegdi ("Sarob" 268-b). Men eng yaxshi qaymoqni Marg'ilonda yegan edim, buning oldida uni un atalangan sut desa bo'ladi ("Anor". 170)*

2. Harakat holatning boshlanish o'rnini bildiradi. Bunday vaqtda u chiqish kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi: *Bu xatni Qrimdan yozayotirman ("Sarob" 194-b). Saidiy boshqarmadan xuddi Abbosxon aytganday mayib bo'lib, bo'shaganidan so'ng kursdan, maktablardan holi ketdi ("Sarob", 122-b.).*

3. Harakat holat yo'nalgan o'rinni bildiradi. Bunday vaqtda u quyidagi shakllarda bo'ladi: a) jo'nalish kelishigi shaklida: *Suv olib kelgani buloqqa borgan edim ("Sarob" 331-b). Saidiy boshqarmaga birinchi kelganda indamas Yoqubjon allaqachon muharrirning yonidagi sersavlat bir stolda qog'ozlar ichiga ko'milib o'tirar edi ("Sarob" 121-b)*

Bunday o'rinlarda ba'zan jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'llanmaydi. Bu hol ko'proq poeziya va eski uslubdagi nutqda uchraydi: *Ket desang Qoshg'ar ketay yo'lda yolg'izlik yomon. Yolg'izlikdan kim o'libdi, hammadan xo'rlik yomon (qo'shiq).*

Ichkari, tashqari, nari, beri kabi ravishlar harakat holat yo'nalgan o'rinni bildirganda jo'nalish kelishigi shaklini olmasligi mumkin. Bulardagi –gari, -qari, -ru elementlari tarixan jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi deb qaraladi. Shuning uchun ular jo'nalish kelishigi qo'shimchasi olmagan holda ham harakat holat yo'nalgan o'rinni bildiradi. Biroq hozirgi o'zbek tilida bu so'zlarni jo'nalish kelishigi shaklida ham ishlatish odatiy hol hisoblanmaydi. Masalan: a)U ichkari(ga) kirdi. Men tashqari(ga) chiqdim kabi; b) jo'nalish kelishigi shaklidagi so'z qarab ko'makchisi bilan qo'llanadi: *Qiz zalning ichkarisiga qarab labini burdi ("Sarob", 36-b.). Qobil bobo yerga qarab tek qoldi ("Sarob", 292-b);* d) jo'nalish kelishigi shaklidagi so'z tomon ko'makchisi bilan qo'llanadi: *Sentabrning boshlarida polk*

g'arbiga tomon yo'l oldi (A.Qahhor); e) bosh kelishik shaklidagi joy nomi+jo'nalish kelishigi shaklidagi tomon so'z bilan qo'llanadi: O'sh va O'zgant atrofida ish chiqmagandan keyin Xisor va ko'lob tomonga yuborilgan edi ("Sarob" 237-b). Maston yuqoriroqqa chiqib dasht tomonga qaradi ("Sarob", 266-b).

4. Harakat holat yo'nalib borgan oxirgi joyni, o'rin chegarasini bildiradi. Bunday holda u quyidagi shakllarda bo'ladi: a) joy nomini bildiruvchi so'z+gacha qo'shimchasini olgan bo'ladi: *Ancha yergacha jim borishdi (A.Qahhor). Saidiy bahorgacha ko'p ulfatlar orttirdi (A.Qahhor, "Sarob"); b) ba'zan chiqish kelishigi shaklidagi so'z ham shu vazifani bajaradi: U belidan suvga tushdi.*

Payt holi harakat holatning ro'y berish vaqtini bildiradi. Payt holi quyidagicha ifodalanadi:

1. Payt ravishi bilan: *Qishki imtihon kunlari yaqinlashganda dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to'g'ri keldi ("Sarob", 44-b). Kechqurun Ehson Sharifni ergashtirib keldi ("Sarob", 110-b). Saidiy ertasiga Munisxon aytgan vaqtda kelib noqulay holatda qoldi ("Sarob" 96-b). Men ilgari qarshi edim, hozir tarafdorman ("Sarob", 99-b).*

2. Ot bilan. Bunda vaqt ma'nosini bildiradigan otlar qo'llanadi. Bu quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: a) bosh kelishik shaklida bo'ladi; ko'pincha aniqlovchi olib keladi va shu aniqlovchi bilan birgalikda payt holi vazifasini bajaradi: *Mening brigadam o'tgan yili qirq gektar yerning har gektaridan qirq olti sentnerdan paxta oldi;* b) o'rin-payt kelishigi shaklida bo'ladi: *Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi ("Sarob", 293-b).* Ba'zan maqol va matallarda o'rin payt kelishigi ko'rsatkichi tushib qoladi: *Yer haydasang kuz hayda Kuz haydamasang yuz hayda. Qovun yesang sahar ye, Sahar yemasang zaxar ye;* d) jo'nalish kelishigi shaklida bo'ladi; e) chiqish kelishigi shaklida bo'ladi: *Bir haftadan beri ko'rmagan edim, dedi Saidiy ("Sarob", 107-b); f) payt bildiruvchi ot + gacha qo'shimchasini oladi: Saidiy uning kechgacha qolishini so'radi ("Sarob", 2018-b). U ertadan kechgacha oftob shuvoqida garvonlar ichiga ko'milib savat to'qirdi (289); g) bosh, jo'nalish va chiqish kelishiklari shaklidagi qadar, keyin,*

sayin, buyon, beri ko‘makchilari bilan birga keladi: Saidiy bir necha haftadan beri domlaning uyiga bormagan edi ("Sarob", 247-b). Bir necha kundan keyin markaziy gazetalarning birida Kenjaning bir taassuroti chiqdi ("Sarob", 77-b). Ammo Saidiy hafta sayin jurnalning oxirgi sahifasida o‘z ismini "bosilmaydi" bezagi bilan ko‘ravergandan so‘ng, yozuvchi bo‘lish uchun o‘zining tutgan yo‘li to‘g‘ri ekanligiga shubhalana bordi ("Sarob", 60-b).

3. Olmosh bilan. Olmosh ham yuqoridagi kelishik shakllari yoki ko‘makchilar bilan birga payt holi vazifasini bajaradi: *Anvar hech qachon bunaqa muomala qilmagani bu tahlidda gapirmagani uchun Marg‘uba birpas hang mang bo‘lib qoldi-yu esini o‘nglab olgandan keyin yana yig‘ladi (A.Q. Anor). Shundan beri Murodxo‘ja domlani ko‘rmagan edi ("Sarob", 93-b). O‘shanda biz yosh edik,- dedi Saidiy ("Sarob", 38-b). O‘shanda men cho‘chiganim yo‘q desam butunlay yolg‘on gapirgan bo‘laman, oshnam (Ayajonlarim, 236). O‘shanda ham zaif chiqardi-yu Marg‘ubaning so‘rog‘iga javob bermay uyquga ketdi (A.Q. Anor).*

4. Ravishdosh bilan. Bunda ko‘pincha –gach, -guncha qo‘shimchasi shakllari yordamida yasalgan ravish qo‘llanadi: *Yotib qolguncha, otib qol (matal).*

5. Harakat nomi bilan: *Ertasi ikkinchi smenadan qaytishda Nabigul Qodir birga-birga ketdi (A.Qahhor).*

6. Son bilan. Bunda son substantivlashgan bo‘ladi: *Payshanba kuni soat beshda maorif uyida majlis bo‘ladi ("Sarob", 49-b). Qolgan ikki so‘mni Saidiy besh kunga yetkazdi.. ("Sarob", 62-b). Ulfat chorshanba kuni soat birga yetkazib berishni va‘da qilib, Saidiyning so‘ng pulidan o‘n bir so‘mini oldi... ("Sarob", 67-b)*

Payt holi voqelikka munosabat nuqtai nazaridan quyidagicha bo‘ladi:

1. Harakat holat umuman ro‘y bergan vaqtni bildiradi: *U ilgari qiroatxonaga kirib kelaturgan gazeta-jurnallarni ko‘zdan kechirmoqchi...(Ayajonlarim,257). Bundan uch yil ilgari u qora qotma ko‘rimsiz bir yigit bo‘lib, bizning maktabdagi yopiq do‘konda non sotadigan edi.*

2. Harakat holat ro‘y berishdagi dastlabki vaqtni bildiradi. Bundan payt bildiruvchi so‘z chiqish kelishigi shaklida kelib *buyon, beri, boshlab* kabi

ko‘makchilar bilan qo‘llanadi: *To‘rt yildan beri ahvol shu (Ayajonlarim,308). Ishga hozirdan boshlab kirishing.*

Sabab holi. Holning bu turi harakat holat yoki belgining ro‘y berish sababini bildiradi. Sabab holi fe‘l bilan ifodalangan bo‘lakka ham ot bilan ifodalangan bo‘lakka ham bog‘lana oladi: *...qizini mahalladan ham yaxshiroq bilgani holda uning to‘g‘rida ko‘nglida shunaqangi gaplarga yo‘l bergani uchun hijolat bo‘ldi...(A.24) Qaysi avtobusda kelishingizni bilmaganim uchun kutib olgani chiqolmadim (Ayajonlarim, 74-b).*

Sabab holi quyidagi so‘zlar bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan. Bunda ot ma‘lum kelishik shaklida yoki ayrim ko‘makchilar bilan birga keladi: a) chiqish kelishigi shaklidagi ot sabab holi bo‘lib keladi: *Abdushukur jahldan shaq-shaq titradi;* b) jo‘nalish kelishigi shaklidagi ot sabab holi bo‘lib keladi: *Avvalo Hakimjonning kulgusiga, undan keyin Murod Ali va qolaversa, qavm qarindoshning ta‘nasiga qolmaslik uchun Marg‘uba Javlondan ajralishni hayoliga ham keltirmas... (Anor, 17-b)* d) o‘rin-payt kelishigi shaklidagi ot sabab holi bo‘lib keladi: *Bu oldingilarga qaraganda ham kam uchraydi: Farzand dog‘ida kuyib ketdi ota bechora;* e) uchun ko‘makchisi bilan kelgan ot sabab holi vazifasini bajaradi: *Bola arzimagan narsa uchun janjal qilardi (Ayajonlarim, 235-b);* f) sababli ko‘makchisi bilan kelgan ot sabab holi vazifasini bajaradi: *Oyim, ukalarim sababli bu yerda yuribman;* g) tufayli ko‘makchisi bilan kelgan ot sabab holi vazifasini bajaradi: *Urush tufayli hammamiz asabiylashib qolganmiz.*

h) bilan ko‘makchisi bilan kelgan ot sabab holi vazifasini bajaradi: *Anvar boya qizning ketidan yugurganida yukini ko‘tarish bahonasi bilan otini so‘ramoqchi bo‘lgan edi, gap bilan bo‘lib so‘rash esidan chiqib qoldi (Anor.2). Qiz bir gap bahonasi bilan Saidiyning yuziga bir lahza tikildi-yu, negadir qizardi ("Sarob", 36-b.). Ehsonning so‘zi bilan unda o‘qish fikri qo‘zg‘algan kundan boshlab shirin turmush, shohona maishatga tuz tushdi ("Sarob", 40-b).*

2. Olmosh bilan. Olmosh ham yuqorida ko‘rsatilgan kelishik shakllari yoki ko‘makchilar bilan kelib sabab holi vazifasini bajaradi: *Bu ariza nima uchun*

hozirgacha muhokama qilinmadi (A.Qahhor). Nima uchun tengqurlari, hatto, o'zidan kattaroq qizlar ham uni "olacha" deb chaqiradi.

Sabab holi vazifasida keladigan *nega* olmoshi aslida *ne + ga* tarzida bo'lsa ham, bundagi jo'nalish kelishigi shakli bugungi til nuqtai nazaridan o'zining asl vazifasini yo'qotgan u ne so'zi bilan qotgan: *Nega bundoq qilasiz axir? Aytardingiz aytmadingiz nega tonasiz ("Sarob" 310-b).* Natijada ravish xarakteridagi olmosh tug'ilgan. Bu olmosh doimo sababni ko'rsatuvchi sanaladi. Jonli tilda bu o'rinda *nimaga* olmoshi ishlatiladi: *Bunday bo'lsa, do'zaxni nimaga yaratding (A.Qahhor). Uning nimaga chaqirganini Anvar ham bilmas edi (Anor. 33).*

Nima uchun olmoshi ba'zan poeziyada *nechun* shaklida qo'llanadi. *Nechun* olmoshi doimo sababni ko'rsatuvchi vosita sanaladi: *"Chittak kim va u nima uchun ertalab nahorda bir piyola suv ichadi (Ayajonlarim, 262).*

Men nechun sevaman O'zbekistonni

Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan deya yer-u osmonni

Muqaddas atayman, atayman tanho?! (A.Oripov)²¹

Nima uchun birikmasi esa hol ham, to'ldiruvchi ham bo'lib kelishi mumkin. Buni gapning umumiy mazmuni, matn, hokim komponenti vazifasidagi so'zning leksik-semantik xususiyati belgilab beradi.

Shu olmoshi uchun ko'makchisi bilan qaratqich kelishigi shaklida birikib, sabab holi vazifasida keladi va qo'shma gap qismlarini bir-biri bilan bog'lash uchun xizmat qiladi: *Uy issiq bo'lgani uchun tutun yuqoriga ko'tarilmay odam bo'yi suzib yurar edi. Shuning uchun kelin choy damlab qaytishda eshikni qiyaroq qilib qo'ydi.*

3. Harakat nomi bilan. Bunda harakatning ko'pincha, chiqish va jo'nalish kelishiklari shaklida yoki ko'makchilar bilan birga keladi: *Uyni yig'ishtirish uchun shoshildi. Anvar dadasining qirqi o'tgandan keyin bir kuni bu yil kursda qolganini rasmiylashtirish uchun fakultetiga bordi (Anor, 7).*

²¹ A.Oripov, Onajonim she'riyat. T.: 2004. 33-b.

4. Sifatdosh bilan. Bunda yuqorida ko'rsatilgan kelishik shakllari yoki ko'makchilar bilan birga keladi: *Odil uyalganidan qizarib ketdi. Muxarrir Kenjaning so'zini haqli topdi, ammo buni osoyishtalik, birodorona suhbat qo'zg'ab, nihoyatiga yetkazmagani uchun koyidi ("Sarob", 123-b).*

5. Ravishdosh bilan. Bunda –(i)b, -(a)y, -masdan shakllaridagi ravishdosh sabab holi vazifasida keladi: *Xotin qo'rqib duduqlandi (A.Qahhor). U bu mudhish voqeaga chiday olmay titrardi.*

6. Sabab ravishi bilan bunday ravishlarda huda-behuda, bekordan-bekorga, noiloj, majburan kabi so'zlar kiradi: *Ey, huda-behuda achchiqlanaverma!*

7. Taqlid so'z bilan: *Taqir-tuqurdan quloqlar batong bo'ldi.*

Maqsad holi. Holning bu turi harakat holat yoki belgining ro'y berishdagi maqsadni anglatadi. Maqsad holi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: a) bunda ot ma'lum kelishik shaklida keladi: *Biz bahorda lola sayliga bordik;* b) o'rin payt kelishigi shaklida keladi. Bunda ko'pgina o'rin-payt kelishigi shaklidagi *maqsad, umid, niyat, orzu, istak* kabi otlar qo'llanadi. Bu otlar odatda o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan birga maqsad holi vazifasini bajaradi: *Yerni yumshatib, bahorda to'qayni buzish maqsadida qayta-qayta quyilgan suv yerga sig'may muzlab qolgan edi (A.Qahhor).* d) uchun ko'makchisi bilan kelgan ot maqsad holi vazifasini bajaradi: *...urushdan keyingi ravnaq uchun zamin tayyorlagan... (Ayajonlarim, 242).* e) bilan ko'makchisi bilan kelgan ot maqsad holi vazifasini bajaradi: *Shu umid bilan qiz o'stirganmidim (Anor, 65). Men qizimni shu umid bilan beraman deganmidim!* f) deb yordamchisi bilan kelgan ot maqsad holi vazifasini bajaradi: *Sizni deb bu yerga keldim.*

2. Harakat nomi bilan. Bunda harakat nomi jo'nalish kelishigi shaklida yoki ko'makchilar bilan birga keladi: *U odamlar orasiga tezroq kirishga, har narsani bilishga shoshdi. Javlonning bezoriligini aytib ko'nglini bo'shatish uchun hovliga oshiqdi (A., 78).*

3. Ravishdosh bilan. Bunda ko'pincha –gani (-kani, -qani) qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan ravishdosh qo'llanadi: *Ha. Moskvaga o'qigani borgan edi*

(A.Qahhor). *U yolg'iz qolgan Saidiy bilan birpas gapirishib o'tirgani kelgan edi. ("Sarob", 41-b). Tashkilotchilik qobilyatini Mirzacho'lda sinab ko'rgani kelgan Nazarov bu sinovdan urush tug'dirgan og'ir sharoitda o'tishi kerak edi (Ayajonlarim,241). Maqsad ravishi. Bunday ravishlarga atayin, ataylab, qasddan, jo'rttaga kabi so'zlar kiradi: Jo'rttaga o'zingni anqovlikka solding (Ayajonlarim,264). Men albatta o'qiyman, - dedi Saidiy va jo'rttaga qizning qitig'iga tegdi,-siz hech bo'lmasa, eshikning tirqishidan dars eshitishga ham rozidirsiz. ("Sarob", 37-b.)*

Miqdor-daraja holi. Holning bu turi ish-harakatning bajarilish darajasini shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan miqdorni bildiradi. Miqdor daraja holi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. *Miqdor-daraja ravishi bilan: Ko'p o'yla, oz so'zla (maqol). U bola bilan bir oz so'zlaganim natijasida xuddi oftobda qatiq ichgan qarindosh chiqib qoldik (IV. 253).*

2. *Son bilan. Bunda son yakka holda keladi: Yetti o'lchab bir kes (maqol).*

Son miqdor-daraja holi vazifasida kelganda *marta, bor, karra, qatla* kabi so'zlar ham qo'llanishi mumkin: *Ikki-uch marta aytdim orqangdan eragshib yurdim (Ayajonlarim, 264). Ikki marta militsiya uyg'otdi (Ayajonlarim,331).*

Son hisob so'zlari bilan birga kelib miqdor-daraja holi vazifasini bajaradi: *Bir tonna bug'doy bo'lsa, ishni yashnatib yuborar edi (Ayajonlarim,241).*

3. *Sifat bilan. Bunda sifat yakka darajada so'zi bilan birga keladi: Fan texnika to'xtovsiz rivojlanmoqda.*

4. *Olmosh bilan. Bunda ko'roq son xarakteridagi olmosh qo'llanadi va u ikkinchi punktdagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: Bir necha kundan keyin markaziy gazetalarning birida Kenjaning bir taassuroti chiqdi ("Sarob" 77-b). Mirzacho'lda shuncha yerni qamish-qiyoy bosib yota beradimi? (Ayajonlarim, 14).*

5. *Ot bilan. Bunda ot ko'makchi bilan birga keladi. Masalan: Gurunchni qopi bilan olishdi.*

6. Sifatdosh bilan. Bunda sifatdosh ko‘pincha darajada so‘z bilan birga qo‘llanadi: *Siz talab qilgan darajada ishlay olarmikin...*

Shart holi. Holning bu turi harakat yoki holatning biror shart bilan ro‘y berishini bildiradi. Shart holi quyidagicha ifodalanadi:

1. Shart mayli shaklidagi fe‘l bilan: *Va‘daga vafo qilmasa yaxshi bo‘lmas (“Sarob”, 63-b). Qizim tegaman desa oladigan yigit son mingta...(Ayajonlarim,205). Tangri xohlasa ko‘rmagandek bo‘lib ketasiz (Ayajonlarim,225).*

2. Ravishdosh bilan. Bunda asosan –(i)b qo‘shimchasi yordamida yasalgan ravishdosh qo‘llanadi: *Biror narsa olsang ko‘rib-ko‘rib ol.*

3. Ish oti + shart (egalik qo‘shimchasi) so‘zi + bilan ko‘makchi orqali: *Uch kunda qaytarish sharti bilan bergan edim.*

Shart holining ayrim turlari ba‘zi jihatlardan ergash gaplarga o‘xshab ketadi. Ayniqsa, o‘ziga oid so‘zlar bilan ortiq darajada kengayib kelgan yoki shart shakli orqali ifodalangan shart hollari ergash gaplarga birmuncha yaqinlashib qoladi. Bunday shart hollari intonatsiya jihatidan gapdagi boshqa bo‘lakdan keskin ajralib turadi. Bu intonatsiya ularni ergash gaplarga yaqin qilib qo‘yadi. Biroq bunday shart hollarini ergash gaplardan farqlash kerak. Ergash gaplar, odatda predikativ bog‘lanmadan (ega bilan kesim munosabatidan) iborat bo‘ladi. Shart hollarida esa predikativ bog‘lanma (ega va kesim munosabati) bo‘lmaydi. Bularda faqat kuchli intonatsion ayrimlik bor.

Bunday konstruksiyalar o‘z ega va kesimiga ega bo‘lishi bilan shart holi funksiyasidan chiqib, ergash gap funksiyasiga o‘tadi.

Masalan: *Ishlasa, tishlaydi. Kim ishlasa, u tishlaydi. Birinchi gap ishlasa-shart holi, ikkinchi gapda kim ishlasa ergash gapdir.*

To‘siqsizlik holi. Holning bu turi harakat holatning ro‘y berishga to‘siq bo‘la olmagan shartni bildiradi. To‘siqsizlik holi quyidagicha ifodalanadi:

1. Shart fe‘li + ham (yoki +da) yuklamasi orqali: *U kelmasa ham baribir topamiz (“Sarob”, 62-b). ... lekin shunday bo‘lsa ham Saidiyning boshqa qizlar bilan kulibroq so‘zlashganini ko‘rsa chehrasi buzilar edi (“Sarob”, 55-b). Mendan*

so‘rasalaring ham o‘zlaring bilasizlar, so‘ramasalaringiz ham, o‘zlaringiz bilasizlar (“Sarob”, 68-b). U mening ovozimni eshitsada indamadi.

2. Ravishdosh bilan. Bunda, odatda, ravishdoshning –(i)b va –(a)y qo‘shimchalari bilan yasalgan turi qo‘llanadi: *Ko‘ra bila turib beparvo bo‘ldi. Yura-yura oyog‘ingiz og‘rimadimi?*

3. Sifatdosh + (egalik qo‘shimchasi) + bilan ko‘makchisi orqali. Bunda – gan shaklidagi sifatdosh qo‘llanadi: *U yosh bo‘lgani bilan juda ko‘p kitob o‘qib chiqqan.*

4. *Qaramay, qaramasdan* so‘zlari qatnashgan qurilmalar bilan: *Qish chillasining sovug‘iga qaramasdan astoydil ishlab, binoni bitkazdik.*

To‘siqsizlik hollari intonatsiyasi jihatidan ergash gaplarga o‘xshab ketadi. Biroq ular predikativ bog‘lanmadan (ega va kesim munosabatidan) iborat bo‘lmagani uchun ergash gap sanalmaydi.

II BOB

2.1. Maktab darsliklarida holning berilishi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tubdan isloh qilish boshlandi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos dastur va darsliklar yaratish, yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo'lida ijodkor va faol insonlar etib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Ana shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan ta'lim tizimini isloh qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada qabul qilingan "Talim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasining ta'limni isloh qilishga qaratilgan bir qator boshqa qonunlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi xususida yurtboshimiz shunday degan edi: "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tasodifan paydo bo'lgani yo'q – bu aynan shu xalqimizning qon-qoniga singgan ma'rifat qonuniyatining davomi". Muhtaram Yurtboshimizning bu purhikmat gaplaridan yurtimizda ta'lim-tarbiya masalasi kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan narsa emas, balki u asrlar davomida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qonuniyat ekanligi anglashiladi. Zero, ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishimizning mazkur bobida o'rta ta'lim maktablari sakkizinchi sinf o'quvchilariga ona tilidan bilimlar silsilasini o'rgatishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilayotganligini mustaqillik davrida yaratilgan umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun "Ona tili" hamda akademik litseylarning 3-bosqich o'quvchilariga mo'ljallangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari materiallarini tahlil qilish nazarda tutilgan.

Boshlan g'ich ta'limda va undan keyin o'quvchilar tomonidan ona tiliga doir mavzularning chuqur o'zlashtirilishi maktabda o'tiladigan boshqa fanlarni ham

yaxshi o'zlashtirishlari uchun xizmat qiladi. Shuni e'tiborga olib, bitiruv malakaviy ishimizda 8-sinf "Ona tili"²² hamda A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar hammuallifligida akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun tayyorlagan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"²³ darsliklarida holning o'rganilishiga doir nazariy hamda amaliy materiallarning berilishi, ularning o'quvchilar yoshi, bilim doirasi, quyi sinflarda hosil qilgan ko'nikma va malakalariga mos kelish-kelmasligi, mashqlar, topshiriqlar va savollarning o'quvchilar tomonidan qay darajada qabul qilinishini, o'zlashtirilishini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik va imkoniyatimiz doirasida ularni tahlil qilishga harakat qildik. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da umumiy o'rta ta'limdan so'ng akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari uzluksiz ta'limning eng muhim halqasi, jahon andozalaridagi zamonaviy bir bosqichi sifatida ajratiladi. Akademik litsey o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ishlab chiqarilgan Davlat ta'limi standarti va dasturda ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar hosil qilishga erishish lozimligi ko'rsatib berilgan. DTS asosida ishlab tuzilgan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish maqsad qilib qo'yildi.

Hol mavzusini akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida o'qitilishi, mavzuni yoritishda, avvalo, DTS bo'yicha qancha soat ajratilganligini namunaviy dasturda nimalarga e'tibor qaratish lozimligini bilish zarur.

Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi umumta'lim maktablarining 5-sinf

²² Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili.Umumta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. – T.: "Cho'lpon" nomidagi nashriyot uyi, 2010.

²³ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich o'quvchilari uchun darslik. – T.: "ILM ZIYO", 2010.

darsligida 1 soat,²⁴ 8-sinf darsligida 8 soat, akademik litseylar 3-bosqich o'quvchilari uchun darslikda 2 soat ajratilgan.

8-sinf uchun yaratilgan "Ona tili" o'quv dasturida "Kirish" uchun 2 soat ajratilgan. Darslik "So'zdan so'zning farqi bor..." mavzusidagi 1-dars bilan boshlangan.

Mavzu bo'yicha birinchi dars darslikning 60-darsidan 169-mashq va 1-topshiriq bilan boshlangan. Darsda 169-mashq va 1-topshiriqqa bitta topshiriq-talab berilgan. 61-, 63-darslarda topshiriqlar berilmagan. Darsning 169-mashq va 1-topshirig'i juda yaxshi tanlanganligini ta'kidlash lozim. Chunki bu mashq va topshiriqda berilgan so'zlarni o'rgangan o'quvchilar holning qanday so'roqlarga javob bo'lishini bilib oladilar.

169-mashq. 1-topshiriq. Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'lib, qaysi gap bo'lagiga tobelanib kelayotganini aniqlang.

1. Nodonga **yuz** aytsang ham befoyda. 2. **Kechqurun** salqin bo'ldi, **ertalab** shudring tushdi. (S.A.) 3. **To'g'ri** yursang, murodinnga oson yetarsan. 4. **Bunda** bor harorat, muhabbat, shafqat. (G`.G`.) 5. Shamol **g'ir-g'ir** esardi. 6. **Hozir** maktab o'quvchisiman, **kelasi yil** talaba bo'laman.

O'quvchilar bu toshiriqni bajargach, "Bilib oling" ruknida hol haqida dastlabki qoidani o'rganaishga kirishadilar.

Bilib oling. Hol ko'proq gap markazi – kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Hollar qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerga? qayerda? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha? kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Bu ruknda holga ta'rif berilgan, hollarga beriladigan savollar keltirilgan, so'roqlariga ko'ra hollar ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak ekanligi aytilgan.

²⁴ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "Ma'naviyat", 2011, 45-bet.

170-mashq. Gaplardagi ajratilgan murakkab hollarni mashqdan so‘ng berilgan jadvalga tushiring.

1. Ayol **sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko‘chaga** otili. 2. Tursunali **bir-bir bosib** minbarga chiqdi va **dona-dona** gapirdi. U vazifaning muhimligini **takror-takror** ta’kidladi. 3. O‘g‘lining to‘yini ko‘rolmadi bechora, dunyodan **ko‘zi ochiq** ketdi. 4. **Urush boshlanganda** u hali ko‘krakdan ajralmagan go‘dak edi. 5. Tiniq suvdan hovuch-hovuch oldi, **qonib-qonib** ichdi. 6. Shodmonbek zarbdan ko‘zi tinib hushdan keydi. 7. **Sharifa bilan Nasibaarazlashganda** Durдона ularni yarashtirib qo‘ydi.

Ushbu mashqda berilgan gaplarda *sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq, ko‘chaga, bir-bir bosib, dona-dona, takror-takror, ko‘zi ochiq, urush boshlanganda, qonib-qonib, Sharifa bilan Nasiba arazlashganda* so‘zlari ajratib berilgan. Ko‘rinib turganidek, bu so‘zlarning qanday hol ekanligini aniqlash o‘quvchi uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Bu mashq orqali o‘quvchilar murakkab hollarni ham mustahkam o‘rganib oladilar. 171-mashq uy vazifasi qilib berilgan. Yozma manbalardan hol ishtirok etgan 3 ta gap topib yozing. Ularning qanday so‘roqqa javob bo‘lganligini ayting. Mavzu bo‘yicha 3 ta mashq, 2 ta topshiriq va 5 ta savol orqali dars davomida o‘rganganlarini mustahkamlash rejalashtirilgan.

Keyingi – 61-darsda “Payt holi va o‘rin holi” mavzusi o‘rganolishi maqsad qilingan. Bu darsda asosan payt va o‘rin holi haqida fikr yuritilishi va unga doir mashqlar berilishi maqsadga muvofiq. Dars 172-mashq bilan boshlangan. Shu o‘rinda mavzuda payt va o‘rin so‘zlari ikki marta holi so‘zi bilan takrorlanganligi bir oz g‘alizroq. Bu keyingi dars mavzulariga ham tegishli. Ularni qisqa qilib “Payt va o‘rin holi” yoki “Ravish va daraja-miqdor holi” kabi berish ortiqcha takrorlardan xalos etadi.

172-mashq. Gaplarni o‘qing. Kesimga bog‘lanib ish-harakatning bajarilish payti yoki o‘rni ma’nosini bildirayotgan bo‘laklarni aniqlang. Ularning qanday so‘roqqa javob bo‘layotganligini ayting.

1. Uy ichida odam ko'p edi. (O'. H.) 2. Po'latjon juda erta, hammadan oldin uyg'ondi.(Oydin) 3. Tevarakda gala-gala chumchuqlar to'xtovsiz chirqillashdi. (O.) 4. Sal o'tmay Shirinoy daladan qaytib keldi.(O.Y.) 5.Bunda qurtlar ipak to'lqiydi.(H.O.) 6. Ota yuz-qo'llarini yuvgandan so'ng sal nariga borib... o'tirdi.(H.N.)

172-mashqdan so'ng "**BILIB OLING**" ruknida o'rin holining qayerga? qayerdan? qayerda? kabi so'roqlari berilgan va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun bitta misol keltirilgan. Xuddi shunday holat payt holida ham takrorlangan. Bizningcha, 61-, 62-, 63-darslar uchun bir soatdan ajratilishi kamlik qiladi. Xuddi shu darslar uchun 2 soatdan vaqt ajratilsa yaxshi bo'lar edi. Chunki payt va o'rin, ravish va daraja-miqdor , sabab va maqsad hollari mavzularini yoritishda ajratilgan soat muhim ahamiyatga ega.

61-darsda bitta ham topshiriq berilmagan. Xuddi shunday holat 63-darsda ham takrorlangan.173-mashqda nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'roqqa javob bo'ladigan o'rin yoki payt holini topib ko'chirish vazifasi qo'yilgan. 8-sinf o'quvchisi uchun bu mashqni bajarish juda ham oson. Bizningcha, mashq juda sodda tuzilgan. Nuqtalar o'rniga o'rin yoki payt holini topib ko'chiring deyilsa va qavslar ichiga ularning so'roqlarini berib o'tirmasa ham bo'lardi. Chunki bu mashq orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatgan bo'laredik.

174-mashq. Kecha yoki bugun (shu darsdan oldin) sinfingizda bo'lgan bir soatlik voqealarni xotirlab, bayon yozing, so'ng unda o'zingiz qo'llagan o'rin holi va payt hollarini belgilang. Qaysi turkum so'zi bilan ifodalanganligini ayting.

Mavzuga doir sinfda bajariladigan 172-, 173-, 174-mashqlar, uyda bajarish uchun berilgan 175-mashq talablari sakkizinchi sinf o'quvchilari uchun to'la mos keladi. Ular o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqil mushohada yuritishga, o'z fikrlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan boshqa darslarda berilgan mashqlardan anchagina farq qiladi. Ayniqsa, *qishlog'ingiz (shahringiz)dagi so'nggi o'zgarishlar* degan jumla o'zining hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Mavzu bo'yicha 3 ta mashq va 3ta savol orqali o'rganilganlarni mustahkamlash rejalashtirilgan.

Keyingi – 62-dars “**Ravish holi va daraja-miqdor holi**”. Dars 1-topshiriq bilan boshlangan. So‘ng “**BILIB OLING**” ruknida ravish va daraja-miqdor holiga ta’rif berilgan hamda misollar keltirilgan.

2-topshiriq uchun alohida misollar keltirilmagan. “Bilib oling” ruknidagi daraja-miqdor holini tushuntirish uchun keltirilgan 2 ta misolni, ya’ni: *1. Paxta to‘g‘risida ko‘p yozdi. 2. Shu gapni besh marta takroladi* gapi yana bir marta qayta krorlangan. Bizningcha, 2-topshiriq uchun ham alohida misollar keltirilsa yaxshi bo‘lar edi. Chunki, yangi misollar o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli bo‘lar edi.

176- mashq. O‘qing, nuqtalar o‘rniga ravish holini qo‘yib ko‘chiring.

Ota ularning istiqboliga ... chiqdi. Kelganlar orasida endigina frontdan qaytgan Boboqul aka ham bor. U hassa tayanib, ... kirib keldi. Nurxonbobo ko‘rpacha yozib, ularni ayvonga taklif qildi. Mehmonlar ... ko‘rinardi. Ularning yuzlarida odatdagi tabassumdan asar ham qolmagan. Hammasining ko‘ngli ... ko‘rinardi. Ular ... o‘tirib, tevarak-atrofga ... qarab qo‘yadilar.

Ushbu mashqdan so‘ng berilgan 177-mashq, savol va topshiriqlar hamda uyga vazifa sifatida tavsiya etilgan mashqlar yaxshi tanlangan.

63-darsda “Sabab holi va maqsad holi” mavzusini o‘rganish maqsad qilingan. Mavzu bo‘yicha bironta ham topshiriq berilmagan, 4 ta mashq va mustahkamlash uchun 3 ta savol orqali dars davomida o‘rgangan nazariy fikrlarni mustahkamlash rejalashtirilgan.

64-darsda test topshiriqlari yechish rejalashtirilgan.

65-dars o‘tilganlarni mustahkamlashga ajratilgan.

66- va 67-darslar yozma nazorat ishi va uning tahliliga ajratilgan. Bu darslarda “**BILIB OLING**” ruknida mavzuga doir qisqa qoidalar, ikkitadan uchtagacha mashq, uchtagacha beshtagacha savollar, uyda bajarish uchun beriladigan vazifalardan tashkil topgan.

Darslikda mavzuni mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlar, savollar, mashqlar, matnlardan parchalar 8-sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi, bilim doirasi, yoshi, tushunib yetish imkoniyatlariga mos ravishda tanlangan.

Shunday qilib, umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun "Ona tili" darsligida holga doir mavzularni o'rganish uchun belgilangan 8 dars(60-, 61-, 62-, 63-, 64-, 65-, 66-, 67-) hol va unga doir o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash, test ishlash, diktant yozish, yozma ish o'tkazish va ularning tahliliga ajratilgan. Bizningch, 61-, 62-, 63-darslarning har birini ikkitadan mustaqil darsga ajratilsa yaxshi bo'lar edi. Chunki o'quvchilar payt holi, o'rin holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi va maqsad hollarini alohida-alohida darslarda o'rganishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu mavzularning ham 8-sinfda o'qitilishi o'quvchilar nutqining ravon, yozma savodxonligining yanada oshishiga, ona tili qonun-qoidalarini chuqurroq o'rganib olishlariga xizmat qiladi.

8-sinf o'quvchilari 60-darsdan boshlab 68-darsgacha holning quyidagi xususiyatlarini o'rganib oladilar: hol haqida umumiy ma'limot, payt va o'rin holi, ravish va daraja miqdor holi, sabab va maqsad holi shakllari.

2.2. Akademik litseylar darsliklarida holning berilishi.

Ma'limki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimida katta islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlar, ular asosida mustaqillik mafkurasini o'ziga singdirgan Davlat ta'lim standartlari, fanlardan dasturlar tuzilib, hayotga tatbiq etila boshlandi. Yoshlarimiz to'qqiz yillik umumta'lim maktablarini bitirgach, o'zlar tanlagan akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlariga turli mutaxassisliklarni egallash hamda tahsilni davom ettirish uchun bora. Mamlakaimiz kelajagi quruvchisi bo'lgan bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash birinchi galda umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari, murabbiy-ustozlari zimmasidadir. Ta'limni esa darslik, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, badiiy, ilmiy adabiyotlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Sobiq sho'rolar davrida kasb-texnika bilim yurtlarida o'qish uchun maktablarning sakkizinchi sinfini bitirgan o'quvchilar jo'natilar edi. Bu bilim yurtlariga yuqori bilimli, iste'dotli o'quvchilar yuborilmas edi. Shuning uchun ham o'quvchilar bunday bilim yurtlatidan qochshar edi. Mustaqillik davriga kelib yangitdan tashkil etilgan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarida o'qishni istaydigan yoshlar ko'paydi. Hato ayrim kasb-hunar kollejlariga tanlov asosida qabul qilinmoqda. Bu mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning yuksak samarasidir. Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotga islohotlar "Davlat tili haqida", "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlarga ham tayanadi. Hozir barcha umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ish qog'ozlari yuritish va ta'lim-tarbiya jarayoni to'liq ravishda davlat tili va yangi alifboga o'tkazilgan. O'z-o'zidan ayonki, barcha fanlardan o'quv adabiyotlari, badiiy ilmiy manbalar ham yangi alifboga o'tkazildi.

Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun DTS asosida yangi topdagi darsliklar yaratildi. Tilshunos olimlar A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar hammuallifligida akademik litseylarning uchinchi bosqich

o‘quvchilari uchun tayyorlagan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi bir-necha marta qayta ishlanib, to‘ldirilgan holda nashr etilgan. Uning so‘zboshi qismida “Sizga ma’lumki, olamni bilish, bilimdon va raqobatbardosh kard bo‘lib yetishishda barcha fanlarning o‘z o‘rni bor lekin, bu borada ona tili sizning hayotingizda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki, “...jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir, o‘z tilini yo‘qotgan har qanday millatning o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrardir”.

Shu bois, siz ona tilining barcha go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishingiz, uning kamalakdek serjilo jozibzidan rohatlanishingiz tabiiy va ayni chog‘da, ona tilimizning go‘zal ifodalarini ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrash, uning sha’ni uchun hamisha kurashishga burchli ekamligingizni sira unutmang.

Shunga asoslamgan holda 3-bosqichda so‘zlarning bir-biriga bog‘lanish usullari, so‘z birikmasi, gap va uning qurilishi, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap kabilar haqida bilim va ko‘nikmalar olasiz, ularning ishlatilish o‘rinlari, uslubiylati bilan yaqindan tanishasiz. Shuningdek, bu bosqichda matn va uning turlari, matn tuzish yo‘llari haqida tushunchalar hosil qilasiz”, deb bejiz aytilmaagan.²⁵

Darslikda bir qancha shartli belgilar qo‘llanilgan bo‘lib, ular, ilmoqli tayoqcha shaklida – topshiriq, undov belgisi shaklida – juda muhim, ko‘rsatish barmog‘i ko‘tarilgan qo‘l shaklida – eslab qoling, so‘roq belgisi shaklida – savol va topshiriqlar ma’nosi uchun xizmat qiladi.

13-DARS “Hol va uning ifodalanishi” mavzusini o‘tish uchun mo‘ljallangan. Mavzuning yoritilishi umumta’lim maktablari darsliklaridan farq qiladi. Mashg‘ulot darsning maqsadi, bayoni, hol va uning ma’no turlari yuzasidan maktabda olingan bilimlarini mustahkamlash va dars rejasi – hol haqida umumiy ma’lumot, holning ma’no turlarini berish bilan boshlanadi. Ushbu dars uchun 5 sahifada nazariy va amaliy materiallar berilgan, esda tutish uchun qoida, ikkita

²⁵ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich o‘quvchilari uchun darslik. – T.: “ILM ZIYO”, 2010, 3-bet.

topshiriq, 11ta mashq bir qancha savol va topshiriqlar, turli mavzulardagi matnlar kiritilgan.

Darsda ishlash uchun berilgan mashqlarning talablari ham rangba-rang.

85-mashq. O‘qing. Hollarni topib, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga birikma tarzida ko‘chiring, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanganligini va turini ayting.

86-mashq. O‘qing. Hollarni topib quyidagicha tahlil qiling:

- a) ma’nosiga ko‘ra turi;
- b) qaysi so‘z tutkumi bilan ifodalanganligi;
- d) tuzilishiga ko‘ra turi (sodda yoki birikmali).

87-mashq. Quyidagi shakllar yordamida hol ishtirok etgan gaplar tuzib yozing: o‘rin oti+da, o‘rin ravishi+dan, +ga, sari, tomon, +ga qarab.

88-mashq. Birikmalarni kengaytiring hollarni aniqlang.

89-mashq. Biror badiiy asardan sabab holi ishtirok etgan gaplarni topib yozing (quyidagi shakllarga etibor bering: -ligi, -ligidan, -ib, sababli, tufayli).

90-mashq. O‘qing. Ravish holi bilan sifatlovchi aniqlovchilarni aniqlab, farqini tushuntiring.

91-mashq. Uyga topshiriq. Rasm asosida “O‘zbekiston qizlari” mavzusida matn tuzing. Matnda ishtirok etgan hollarni aniqlang.

92-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Nuqtalar o‘rniga bir necha hollarni qo‘yib ko‘chiring. (Ikki talaba yozuv taxtasida musobaqa tarzida o‘tkazsa ham bo‘ladi.)

U.....gapirdi. Bahor.....keldi.

Kim ko‘p, to‘g‘ri, tez yozadi.

Ushbu mashqni doskadami, o‘tirgan holda daftargami bajarish musobaqa tarzida amalga oshirilishi darsning samaradorligi va qiziqarli tashkil etilishini ta’minlaydi.

93-mashq. Hol ishtirok etgan gaplar yozing. Unda hol ot, sifat, son, olmosh, ravish, ravishdosh, sifatdosh, taqlid so‘zlar bilan ifodalansin.

94-mashq. Bobur g‘azalini ifodali o‘qing. Undagi gap bo‘laklarini aniqlab,

ostiga chizing.

95-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing. Xulosa chiqaring. Siz ham “Men kesimman”, “Men to‘ldiruvchiman”, “Men holman” mavzusida matn tuzing. Matningizda, albatta, badiiylik aks etsin.

Holga doir mavzularni o‘rganish uchun ikki soatlik dars ajratilgan. Materiallar biroz ko‘proq, ammo qiziqarli. Shuning uchun mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy materiallar akademika litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Umuman olganda, tilshunos olimlar A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar hammuallifligida akademika litseylar va kasb-hunar kollejlarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun tayyorlagan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘rta umumta‘lim maktablari o‘quvchilari uchun yaratilgan avvalgi va mustaqillik davrida yaratilgan darsliklardan jiddiy farq qiladi.

Ushbu darslik yosh va dunyoqarash jihatidan maktab o‘quvchisiga nisbatan bir qadar ulg‘aygan akademika litseylarning va kasb-hunar kollejlarning o‘quvchilariga moslab yaratilgan. Nazariy materiallar, mashqlar, savol va topshiriqlar akademika litseylar va kasb-hunar kollejlarning o‘quvchilari uchun unchalik og‘irlik qilmaydi. Aksincha, ularning umumta‘lim maktablarida hol mavzusi bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash hamda yangi tushunchalar va bilim berish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, darslikda berilgan 92-mashq guruh bo‘lib ishlashga mo‘ljallanganligi bilan ahamiyatlidir.

Akademika litseylar va kasb-hunar kollejlari uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun tilshunos olimlar A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar hammuallifligida tayyorlagan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi umumta‘lim maktablari o‘quvchilari uchun yaratilgan darsliklardan nafaqat shakliy, balki mazmun va mundarija jihatidan ham ancha farq qiladi. Darslik akademika litseylar va kasb-hunar kollejlarning o‘quvchilariga mos tarzda tuzilgan. Ayniqsa, individual tarzda bajariladigan mashqlar va topshiriqlardan bilan bir qatorda, guruh bo‘lib ishlash uchun mo‘ljallangan mashq va topshiriqlarning berilganligi

o'quvchilarning ona tilidan mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlana boshlagandan byon ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida katta islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli kitobida ta’kidlaganlaridek, “O‘tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’noda milliy qadriyatga aylantirish yo‘lida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi”.²⁶

Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy sohalarda keng ko‘lamli ishlar, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ona tilini o‘qitishni tashkil etish va mazmun jihatidan qayta ko‘rish taqozo etdi. Shunga ko‘ra respublikamizda olib borilayotgan islohotlar o‘z natijasini bera boshladi. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablarida “Ona tili” fanini chuqur o‘qitish alohida e’tiborga loyiq. Chunki til ijtimoiy munosabatlar vositasidir. Shu bilan birga u nutqni to‘g‘ri, ravon, jozibador, ifodali, ta’sirli yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilimizda mavjud bo‘lgan bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar nutqni tashkil etish, uni bezash vazifasini bajaradi. Bugungi kun tilshunosligi berayotgan nazariy va amaliy fikrlarga ko‘ra gapning grammatik markazi kesim hisoblanadi. Ega ish harakat bajaruvchisini ko‘rsatadi. Faqat kesimdan yoki bosh bo‘laklardan iborat gaplar tuzish mumkin, lekin ikkinchi darajali bo‘laklar gap orqali ifoda etilayotgan fikrga aniqlik kiritadi. Masalan, ikkinchi darajali hol bo‘lagi orqali ish harakatning bajarilish o‘rni, sababi, maqsadi, payti, daraja-miqdori kabilarni ifodalash imkoniyati mavjud.

Har bir gap bo‘lagining gapdagi o‘rni qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi hamisha tilshunoslik fani uchun muhim hisoblangan. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda umumta’lim maktablarining 8-sinf “Ona tili” hamda

²⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. -б.

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich o'quvchilari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida hol mavzusi va uning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa bo'laklardan farqli jihatlarining o'rganilishi, o'quvchilarning ushbu mavzuni yetarli darajada o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan nazariy va amaliy materiallarning berilishini o'rganishni, mazuga doir bilimlarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, darslikda aks etishi kabi masalalarni tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan edik. Ishimizning birinchi bobida milloddan avvalgi davrlardan XIX asrgacha dunyo filolog olimlarining ikkinchi darajali bo'laklar, jumladan holga doir qarashlariga hamda o'zbek tilshunosligida bu mavzuning o'rganish tarixiga to'xtalib o'tdik.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida o'rta umumta'lim maktablari, kademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun nashr etilgan "Ona tili" hamda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida hol va uning ifodalanishi hamda o'quvchilar tomonidan ularning qay tarzda o'zlashtirilishi haqida olib borgan kuzatishlarimizni bayon etdik.

Darsliklarda qamrab olingan topshiriqlar, matnlar, mashqlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham ma'naviy ahamiyatga ega. O'quvchilar darsliklardagi mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida kuzatish, qiyoslash, ijodiy tafakkurni ishga solish, savol va topshiriqlarga to'g'ri va asosli javoblar topish, erishilgan natijalarni xulosalashlari lozim. "Ona tili" darsligi ham, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ham "Hol va uning ifodalanishi" bilan bog'liq mashqlar, topshiriqlar, savollar va topshiriqlar, gaplar va boshqa faktik materiallar shu kungi talablardan kelib chiqib tanlangan. Inchinun, ona tili va adabiyot o'qituvchilari DTS ular oldiga qo'yayotgan talablar asosida ish yuritishsa, dars davomida yangi metodlardan, pedagogik texnologiyalar va texnik vositalardan unumli foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etsalar, mavzuning o'zlashtirilish ko'rsatkichi va darsning samaradorligigina emas, o'quvchilarning faolligi ham sezilarli darajada ortadi. "Ona tili" darsliklarida berilgan matnlarda milliy tafakkur, milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar, sharqona odob-axloq namunalari aks etgan. Ona tili darslarida o'quvchi mustaqil izlanmasa, ijodiy fikrlamas va xulosalar chiqarmasa,

mashg`ulotlarda va mustaqil ravishda o`rgangan bilimlari amalga tatbiq etilmay qolib ketadi. DTS, yangi tipdagi dasturlar talablarini amalga oshirish uchun fan o`ituvchilari va o`quvchilar o`z bilim. Ko`nikma va malakalarini oshirish ustida tinmay izlanishlari lozim.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitirib chiqadigan yoshlar turmushning barcha sohalarida, muloqat va munosabatning barcha turlarida o`zbek tilidan, uning lug`at boyligidan samarali va to`g`ri foydalana olishlari, uning cheksiz imkoniyatlaridan to`laqonli bahramand bo`lishlari kerak.

Umumta`lim maktablarining 8-sinf o`quvchilari uchun nashr etilgan "Ona tili" darsligida "Hol va uning ifodalanishi" mavzusi bo`yicha berilgan topshiriqlar, mashqlar, savol va topshiriqlar, mashq va topshiriqlardagi til materiallari o`rganilganda, darslikning mustaqillik davri talablaridan kelib chiqib, shu sinf o`quvchilarining yoshi, dunyoqarashi, bilim darajasi hisobga olingan holda tuzilganligiga guvoh bo`ldik. Akademik litseylarva kasb-hunar kollejlari uchun bosqich o`quvchilari uchun "Hozirgi o`zbek adabiy tili" darsligi esa umumta`lim maktablari o`quvchilari uchun yaratilgan darsliklardan ham mazmun, ham mundarija jihatidan farq qiladi. Darslik akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o`quvchilariga moslab yozilgan.

ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
2. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, 2000. – 245 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-хуқуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош тахририяти, 2004.
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-хуқуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош тахририяти, 2004.
5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Давлат тили ҳақида. Davlat va millat ramzlari. Ona tili – davlat tili.(O‘quv qo‘llanma-majmua). – Тошкент: “Адолат”, 2004.
6. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati, 2004. 8-48-betlar.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: “Tafakkur” nashriyot uyi, 2012.
2. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. –T.: Tafakkur, 2012.
3. Bakalavrlk bitiruv malakaviy ishini bajarish, rasmiylashtirish va himoya qilish. Tuzuvchilar: Jumaboyev A., Tuxvatullin F.X., Yakubov A.A. – Samarqand: SamDU, 2011.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo raboyeva Z. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Ma‘naviyat”, 2011.
5. Мусаев А., Ўзбек сўзлашув услубида гап бўлаклари тартиби, “Фан” – Т.: 2011-йил, 120 бет.
6. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
8. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich taalabalari uchun darslik. – T.: “ILM ZIYO”, 2010.
9. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.: 2002.
10. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013.

11. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1992. – 399 б.
12. То‘хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2010.
13. То‘хлиев В., Yusupova Sh., Ziyodova T., Oxunjonova O., Jumashev D. O‘zbek tili oqitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
14. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv darsturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili(5-9-sinflar). – T.: 2010.
15. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Т.: ФАН, 1976.
16. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati, 2004. 8-48-betlar.
17. Қодиров М., Фуломов А.. Она тили ўқитиш методикаси. - Т.: 2001.
18. Фуломов А., М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1987, 256-бет.
19. Фуломов А. Она тили ўқитиш жараёнида активлик принципини амалга оширишнинг назарий асослари. – Т.: Фан, 1989.
20. Фуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
21. Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
22. Фуломов Ё., Расулов И., Рустамов Х., Мирзааҳмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1975.
23. Фуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
24. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-китоб, – Т.: ФАН, 1966.
25. www.samdu.uz/files/web/index.htm

III. Lug‘atlar:

1. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati, 2004. – 431 b.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 2008.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашриёти, 2002. – 168 б.

ILOVALAR

Umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun "Hol" mavzusida bir soatlik ishlanma.

Mavzu: Hol.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga hol haqida umumiy tushuncha berish.
2. O'quvchilarni vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat hissida tarbiyalash.
3. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy darslarda matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning jihozi:

1. 5-sinf ona tili darsligi.
2. Mavzuga oid ko'rgazma.
3. Tarqatma savollar.

Darsning metodi:

Tushuntirish – namoyish etish, suhbat, o'yin.

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish.
2. Davomatni tekshirish.
3. Tozalikka e'tibor berish.

Darsning borishi:

Dars tashkil etilgach, quyidagi savollar asosida suhbat o'tkazilib, o'quvchilarning o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlari so'rab baholanadi.

1. Sodda yig'iq gap deganda nimani tushunasiz?
2. Sodda yoyiq gap deb qanday gapga aytiladi?
3. *Aytdi so'zini kim, qachon?, qayerda? nimani? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlar bilan kengaytirib gap tuzing, uning qanday gap ekanligini ayting.*

136-mashq. O'tgan dars uyga vazifasi.

Yurtimizni bog'ga aylantiramiz

Keyin yana o‘tilgan mavzu yuzasidan tarqatma materiallar tarqatiladi. O‘quvchilar esa quyidagicha guruhlariga ajratiladi: 1-guruh “**Bilimdon**”, 2-guruh “**Ziyo**”, 3-guruh “**Tilshunoslar**”, 4-guruh esa, “**Zukkolar**”.

Tarqatma materiallar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1 – tarqatma

Sodda yig‘iq gaplarga 3 tadan misol keltiring.

2 – tarqatma

Sodda yoyiq gaplarga 3ta misol yozing..

3 – tarqatma


Sodda yig‘iq va yoyiq gaplarga 2 tadan misol keltiring.

Berilgan gaplarni bir-biridan farqini izohlang.

4 – tarqatma

O‘zingiz ham kitob o‘qiysiz. Ushbu gap turini aniqlang va izohlang.

Yangi mavzuga oid ko‘rgazmali qurol yozuv taxtasiga ilinadi.



Hol fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini, o‘rnini, sababini, maqsadini bildiradi. Tahlil jarayonida holning ostiga nuqtalardan (.....) iborat chiziq chiziladi. Maktabga ketdi.

Mavzu yuzasidan berilgan 1-topshiriq asosida mavzu o‘quvchilarga tushuntirib beriladi. Unda shunday topshiriq qo‘yilgan: *Ketdi kesimini qachon?*, *qayerdan?*, *qanday qilib?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan kengaytiring.

1. *Bugun ketdi.*
2. *Maktabdan ketdi.*
3. *Arazlab ketdi.*

2-topshiriq. Savollarga javob berish orqali gap tuzing. *Kim?, qachon?, qancha?, nima qildi?*

Alisher kecha o'nta ko'chat ekdi.

Topshiriq bajarib bo'lingach, mavzuga oid berilgan mashqlar birin-ketin bajariladi.

137-mashq. Berilgan gaplardagi holni topib, unga izoh bering.

Ayiqpolvonnikiga Arslon mehmon bo'lib kelibdi. Ayiq mehmonni yong'oq bilan siylamoqchi bo'lib, katta o'g'liga yong'oqqa chiqishni buyuribdi. U ko'nmagach, o'rtancha, so'ngra kichik o'g'lidan iltimos qilibdi. Ular ham otasining gapini rad etishibdi. Arslonning jahli chiqib:

-Bolalarim odobli degan eding-ku!-debdi. Shunda Ayiqpolvon:

-Yong'oq tagidan sal nariroq ketaylik,-debdi.

Ular yong'oq tagidan ketishi bilan ayiqchalar daraxtga tirmashib chiqishib birpasda mehmonning oldiga yong'oq uzib qo'yishibdi. Arslon bundan ajablangan ekan, ayiq: - Sababini katta o'g'limdan so'ra,-debdi.

Katta o'g'il:

-Otamiz daraxt tagida edi. U turgan joyda uning tepasiga chiqish odobdan emas,-deb javob beribdi.

(Ertakdan)

Mehmonni yong'oq bilan mehmon qilmoqchi bo'lib – maqsad holi.

Ko'nmagach, So'ngra – payt.

Yong'oq tagidan, sal nariroq, daraxtga – o'rin.

Bir pasda - ravish holi.

Daraxt tagida – o'rin.

Tirmashib – tarz holi.

138-mashq. Quyidagi qoliplar asosida gaplar tuzing va ularni daftaringizga yozing.

Kim? + qayerda? + nima qildi?

139-mashq. Gaplardagi tushirib qoldirilgan hollarni so‘roqlari asosida toping va ularni izohlang.

(Qayerda?) baland va hashamatli binolar ko‘p. Tuyaqush (qayerda?) yashaydi. (Qachon?) yangi yilni kutib olamiz. O‘rtog‘im kecha (qayerdan?) keldi. Biz (qayerga?) sayohatga chiqmoqchimiz.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar beriladi:

1. Hol deganda nimani tushunasiz?
2. *Gapirdi kesimini qachon?, qayerda?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi hollar bilan kengaytiring.
3. *Qachon?, qayerda?, qanday qilib? Nima uchun? Nima maqsadda?* so‘roqlari nimalarni anglatish uchun ishlatiladi?

Uyga vazifa:

140-mashq. O‘zingiz sevgan o‘zbek allomalaridan birining hayoti va faoliyati haqida gaplar yozing, unda holdan foydalaning.

Akademik litseylarda “Hol” mavzusi o‘tiladigan dars ishlanma

TEXNOLOGIK MODEL

Hol va uning ifodalanishi.

Talabalar soni:	30 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Amaliy, nazariy
Mavzu rejasi	1. Hol haqida umumiy ma’lumot. 2. Holning ma’no turlari.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi	O‘quvchilarda hol va uning qo‘llanilishi haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.
Pedagogik vazifalar: Talabalarning to‘ldiruvchi bo‘yicha bilimlarini tekshirish, uy ishlarini ko‘rib chiqish; hol mavzusi yuzasidan talabalarga tushuncha berish; o‘tgan mavzuni yangi mavzu bilan umumlashtirib, shu mavzu asosida mashqlar bajarish.	O‘quv faoliyati natijalari: Talabalar to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi yuzasidan yetarlicha bilimga ega bo‘ladilar. Gap tarkibidan to‘ldiruvchilarni ajratib ko‘rsata oladilar, hol mavzusini yaxshi o‘zlashtirib, berilgan mashqlarni bajara oladilar.
Darsning maqsadi:	Ta’limiy – talabalarning hol va uning ma’no turlari yuzasidan o‘rta umum ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash; Tarbiyaviy – talabalarni vatanga muhabbat, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash.
Dars berish vositalari	Ko‘rgazmali qurol, yozuv taxtasi, bo‘r.
Ta’lim usullari	Suhbat, munozara, tushuntirish, savol-javob.
Ta’lim shakli	Yozma, test
Ta’lim berish sharoiti	Jihozlangan xona
Monitoring va baholash	Mashq ishlash, savol-javob, ta’limiy o‘yinlar

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar Vahti	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I bosqich. Kirish. 20 daqiqa.	I.1. Sinf tozaligi, o'quvchilar formasi tekshiriladi; I.2. Davomatni aniqlash; I.3. O'tgan dars mavzusini so'rash.	Tozalik ta'minlanadi, o'quvchilar to'g'irlanadi. Davomat to'liq qilinadi. Uyga vazifa so'raladi. I ilova: 76-mashq.
II bosqich. Asosiy qism. 45 daqiqa.	II.1.O'tgan darsni mustahkamlash va yangi mavzuga bog'lash. II.2.Yangi mavzuning bayoni; II.3.Yangi mavzuni mustahkamlash.	O'quvchilar yangi mavzuni yozib bajarib tekshiradilar "Vena diagrammasi", yozma test, blits so'rov. II, III, ilovalar. Ayajonlarim, V ilovalar.
III bosqich. Yakuniy. 25 daqiqa.	III.1.Mavzuga xulosa yasash; III.2.Talabalarni baholash; Uyga vazifa berish.	Mavzuni xulosalay oladilar, VI ilova: "Kim ko'p biladi" o'yini orqali bajariladi. Talabalar baholarini belgilab oladilar. 91-93 – mashqlar.